

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA UPTA MAHCYC TA'LIMI VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

MILLIY G'OYA, HUQUQ VA MA'NAVIYAT ASOSLARI KAFEDRASI

**“Химоя қилишга руҳсат бераман”
Tarix fakulteti dekani**

**_____ А. Пардаев
“ _____ ” _____ 2019 йил**

**5111600- Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim yo'nalishi
Бакалавр даражасини олиш учун**

**SH.M.MIRZIYOEV ASARLARIDA INNOVATSION
RIVOJLANISH MASALALARI**

мавзусида бажарилган

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Бажарувчи: М. Рахматуллаева

Ilmiy rahbar: B.M. Ochilova

Ишни химояга тавсия этаман Б.М. Очилова

**БМИ Milliy g'oya, huquq va ma'naviyat asoslari
кафедраси йиғилишининг қарори билан (Қарор №
____, ____ . 2019 йил) химояга тавсия этилган**

Кафедра мудири

М. Хошимхонов

Jizzax-2019

BMI A. Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika Institutining Tarix fakulteti “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasida bajarilgan.

Taqrizchilar:

.....
.....

Himoya 2019-yilning _____soat____da A.Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika institutining Tarix fakultetida davlat attestatsiya komissiyasining bakalavr darajasini olish uchun yig’ilishida o’tkaziladi. Manzil: Tarix fakulteti 406-xona.

Ish bilan A.Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika institutining Axborot Resurs markazida tanishish mumkin (manzil: Jizzax shahri Sharof Rashidov shoh ko’chasi, 54).

МУНДАРИЖА

KIRISH.....

I-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SH.M.MIRZIYOEV TOMONIDAN HARAKATLAR STRATEGIYASI ASOSIDA JADAL TARAQQIYOT VA YANGILANISH KONSEPSIYASINING ISHLAB CHIQLISHI

- 1.1. O‘zbekiston taraqqiyotining **yangi bosqichi va** SH.M.Mirziyoev asarlarida yangi davrning asosiy xususiyatlarining ifodalanishi.....
- 1.2. SH.M.Mirziyoev tomonidan O‘zbekistondagi islohotlarning innovatsion tizimining **ishlab chiqilishi**.....
- 1.3. Harakatlar strategiyasi ijtimoiy taraqqiyotga innovatsion yondashuv sifatida.....

II-BOB. O‘ZBEKISTONDAGI ISLOHOTLARNING INNOVATSION MUAMMOLARI

- 2.1. SH.M.Mirziyoevning “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” asarida innovatsion rivojlanish yo‘lining dolzarb muammolari va ularning echimiga oid g‘oyalarning ifodalanishi.....
- 2.2. SH.M.Mirziyoevning 2017 yil 22 dekabrda O‘zbekiston Oliy Majlisi qo‘shma palatalari yig‘ilishidagi Murojaatnomasida innovatsiyalar milliy farovonlikni yaratish omili ekanligining asoslanishi.....
- 2.3. Ijtimoiy fanlar o‘qitilishida SH.Mirziyoev asarlaridan foydalanish metodikasi.....

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....

KIRISH

Mazuning dolzarbligi. Bugun shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda har bir mamlakatning taraqqiyoti va istiqboli bu - innovatsion g'oya va texnologiyalarni yaratishga va ularni amaliyotga samarali tadbiiq etishga zaruriy ravishda bog'liq bo'lib qolmoqda. Innovatsiyada yangilik – bu davr va sharoit taqozosi (rivojlanish ehtiyojlari) bilan belgilangan mohiyat bo'lib, uning atrofida yangilikning mazkur tizimda ilgari qo'llanilgan tushunchalardan tizimning belgilariga ta'sir ko'rsatish darajasiga ko'ra butunlay farq qiladigan mazmuni shakllanadi. Taxmin qilinayotgan natijaga erishishni ta'minlaydigan elementlar, munosabatlar va harakatlarning muayyan tizimini o'zida ifodalovchi jarayon innovatsiya hisoblanadi. Aynan innovatsiya rivojlanishning aniq va muayyan shakli sanalgani bois, innovatsiyani boshqarish (yoki innovatsiya yordamida boshqarish) rivojlanishni boshqarishni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "... Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak.¹ Prezidentimizning ushbu konseptual fikrlaridan shunday xulosa kelib chiqadiki, O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichidagi islohotlar innovatsion g'oyalar va texnologiyalarga asoslanadi va islohotlar natijadorligini ham innovatsion faoliyat belgilab beradi.

SH. Mirziyoev "Milliy taraqqiyotimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz", "Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash – xalqimiz uchun munosib hayot darajasini yaratishning

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. / Халқ сўзи 2017,-23 декабрь.

kafolatlatidir”, “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”, “Erkin va obod, demokratik jamiyatni barchamiz birgalikda barpo etamiz”, “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” kabi **асарлари ва** ma’ruzalarida, shuningdek, 2017, 2018 yillarda Oliy Majlisga Murojaatnomalarida va boshqa asar, nutq, ma’ruza va turli uchrashuvlarda bildirgan fikr-mulohazalarida O‘zbekistoni nafaqat iqtisodiyot, balki jamiyatning barcha sohalarini innovatsion rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqdi va O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichidagi asosiy muammolar, mamlakatni modernizatsiyalash va jamiyatni isloh qilishning ustuvor yo‘nalish va vazifalarni ilmiy-nazariy va amaliy-konstruktiv jihatdan juda teran asoslab berdi.

SH. Miziyoev asarlarida O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va innovatsion rivojlanish yo‘lining ilmiy-metodologiyasi, konseptual dasturlari ifodalab berilgan. Bu g‘oya va ilmiy-nazariy metodologiya nafaqat iqtisodiy islohotlarning ustuvor vazifalarini, balki jamiyatning barcha sohalarini Harakatlar strategiyasi asosida jadal rivojlantirish va yangilashning dasturulamali bo‘lib xizmat qilmoqda. SHu nuqtai nazardan SH. Miziyoev asarlaridagi innovatsion rivojlanish masalaalarini chuqur o‘rganish, tahlil etish va izchillik bilan amaliyotga tadbiq etib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ana shu omillar Bitiruv malkaviy ishi mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqot mavzusining o‘rganilganlik darajasi. Shuni qayd etish lozimki, innovatsiya va innovatsion taraqqiyot muammolari ko‘pdan beri ijtimoiy-falsafiy va sotsiologik tadqiqotning predmeti sifatida amal qilib keladi.

G.Tard asarlarida (xususan, 1901 yilda e‘lon qilingan «Ijtimoiy mantiq» asarida) ijtimoiy taraqqiyot ko‘rsatkichi sifatida ixtirolar va innovatsiyalar amal qilishi¹ ko‘rsatib berilgan.

Avstriyalik iqtisodchi I.SHumpeter («Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi», 1911 yil) innovatsiyaning alohida mexanizmi¹ni qayd etadi. N.G.Kondratev

¹ Тард Г. Социальная логика.-М.: 1901. -156 с.

¹ Шумпетер И. Теория экономического развития.-М.: 1911. -89.

innovatsiyaning siklli rivojlanish nazariyasi g'oyasini ilgari suradi. Ushbu nazariyada innovatsiyalarning iqtisodiy hayotni ham, ijtimoiy hayotni ham o'zgartiruvchi ixtirolardan izchil va faol foydalanish dinamikasi² alohida o'rin egallaydi.

Innovatsiya muammolarining ilmiy tadqiq etilishi borasida keyingi yillarda ham qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Chunonchi, I.V.Bestujev-Lada, D.R.Raxitov, S.YU.Glazev, V.S.Dudchenko, V.I.Kondratev, N.I.Lapin, V.YA.Lyaudis, A.I.Prigojin, B.Tviss asarlarida ayni shu muammolar atroflicha tahlil qilingan. Ularda innovatsiya tushunchasining mazmuni va innovatsion jarayonning ahamiyati, innovatsion qarama-qarshiliklar va innovatsion harakatning algoritmlari, innovatsiyalarning hayot sikli va ijtimoiy diffuziyasi muammolari xususida turli xil nuqtai nazarlar o'z aksini topadi. Tashkiliy tuzilmaning texnologik o'zgaruvchisi bilan innovatsiyalar o'zaro aloqasining turli tomonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotchilar ishlab chiqarish va sotish muammolarini hamda tadbirkorlarning tegishli xulq-atvorini o'rganibgina qolmasdan, ijtimoiy tizimlarning ijtimoiy-psixologik omillarini, ijtimoiy o'zgarishlar xususiyatini va innovatsion xulq-atvor tiplarini ham atroflicha tadqiq etadilar.

Respublikamiz olimlaridan M.Bekmurodov, T.Sultonov, B.Xodiev, S.G'ulomov, A.Bekmurodov, SH.Mustafaqulov, U.G'afurov, B.Salimov, R.Hakimov, M.Isakov, B.Sultanov, M.YUsupov va boshqalarning asarlarida ifodalab berilgan davlat va jamiyatni isloh etish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zarishlar va erkin raqobatni, xalq farovonligini oshirishning innovatsion rivojlanish masalalari ilmiy-nazariy tadqiq etilgan.

Tadqiqotning ob'ekti. SHavkat Mirziyoev asarlarida innovatsion rivojlanish masalalari **таҳлили**.

Tadqiqotning predmeti. SH. Mirziyoevning O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy hayot va jamiyatning barcha sohalarini innovatsion rivojlantirish konsepsiyasi asosida O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichidagi asosiy muammolarning innovatsion echimi masalalari .

² Кондратьев Н.Г Цикличное развитие инноваций.-М.: Наука, 1954. -178 с.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. SH.Mirziyov **томонидан Ўзбекистонни** keng ko‘lamli taraqqiyot strategiyasi va innovatsion rivojlanishga oid asarlarida asoslab berilgan davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini innovatsion rivojlantirish konsepsiyasi va shu asosda O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichidagi asosiy muammolarni hal etish, mamlakatni modernizatsiyalash va jamiyatda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo‘nalish va vazifalarni ilmiy-nazariy tahlil etish. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish belgilandi:

- “Innovatsiya” tushunchasining mamun mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etish;

- SH. Mirziyoev tomonidan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish konsepsiyasining mazmun-mohiyati, tamoyil va xususiyatlarini, undadagi innovatsion rivojlanishga oid g‘oya va qarashlarni ilmiy-nazariy tahlil etish;

- O‘zbekiston taraqqiyoti yangi bosqichining boshlanishi va SH.M.Mirziyoev asarlarida yangi davrning asosiy xususiyatlarining ifodalanishi masalalarini yoritib berish;

- SH.M.Mirziyoev tomonidan O‘zbekistondagi islohotlarning innovatsion tizimining yaratilishi va uning ilmiy-nazariy, konseptual va amaliy-konstruktiv ahamiyatini yoritib berish;

- Harakatlar strategiyasi ijtimoiy taraqqiyotga innovatsion yondashuv sifatidagi ahamiyatini ilmiy asoslab berish;

- O‘zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarining innovatsion muammolarini tadqiq va tahlil etish;

- Ijtimoiy fanlar o‘qitilishida SH.Mirziyoev asarlaridan foydalanish metodikasini yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy va metodologik asosi. O‘zbekistonda Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning keng ko‘lamli taraqqiyot strategiyasi va innovatsion rivojlanishga oid konseptual g‘oya va qarashlari aks etgan asarlari mazkur BMIning ilmiy-metodologik asosini tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tahlil (analiz), sentiz (umumlashtirish), induktiv va deduktiv metod, taqqoslash, xulosa chiqarish.

BMI ning tuzilishi va hajmi. Kirish, 2 bob, 6 paragraf, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 91- bet.

I-BOB.O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SH.M.MIRZIYOEV TOMONIDAN HARAkatLAR STRATEGIYASI ASOSIDA JADAL TARAQQIYOT VA YANGILANISH KONSEPSIYASINING ISHLAB CHIQLISHI

1.1.O‘zbekiston taraqqiyoti yangi bosqichining boshlanishi va SH.M.Mirziyoev asarlarida yangi davrning asosiy xususiyatlarining ifodalanishi

O‘zbekiston Prezidenti SH.Mirziyoev o‘z asrlarida hozirgi murakkab davrda tinchlik va xavfsizlikni saqlash, jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirish, makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va keyingi yillardagi iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlarini saqlab qolish, qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish, tashqi bozorlarda raqobat va beqarorlik kuchayib borayotgan sharoitda iqtisodiyotning real tarmoqlari bilan bir qatorda mamlakatimiz hududlarida ham raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish va eksport salohiyatini oshirish alohida ahamiyatga egaligini ta’kidladi. SHuningdek kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining mehnat bilan bandligini ta’minlash, xalqaro kommunikatsiya tarmoqlariga ulangan zamonaviy yo‘l-transport va muhandislik infratuzilmsinishakllantirish, shuningdek, milliy axborot kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish hozirgi bosqichdagi islohotlarning asosiy vazifalari sifatida asoslab berdi.

Umuman olganda, Prezident SH.Mirziyoev taraqqiyot startegiyasini va innovatsion rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqib, keyingi ikki yarim yil ichida jamiyatning demokratik qiyofasini, islohotlar sur‘atini o‘zgartirib, davlat va xalq o‘rtasidagi muloqot asosidagi inson manfaatlarini amalga oshirishning jahonda o‘xshashi bo‘lmagan o‘ziga xos tizimini yaratdi. Harakatlar strategiyai

asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari quyidagi olamshumul vazifalar amalga oshirildi va oshirilmoqda:

O‘zbekiston taraqqiyotini mazmunan tamomila yangi bosqichda - Harakatlar Strategiyasida belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlar asosida izchil amalga oshirishga kirishildi. Barcha sohalar faoliyatini tashkil etish va boshqarishda yagona davlat siyosati yuritila boshlandi va bu jaryonning uzluksiz amal qilishi qat’iy nazoratga olindi. Davlat tuzilmalarini jamiyatga xizmat qildirish bo‘yicha amaliy mexanizm ishga tushirildi. Mamlakatni jadal rivojlantirishning muhim omili bo‘lgan chet el invssgitsiyalarini jalb qilish orqali sanoatni tez taraqqiy ettirish, sanoatni yalpi ichki mahsulot hajmidagi ulushini kengaytirishdan iborat yangi iqtisodiy siyosat yuritilmoqda. Tajribali, mustaqil fikrlash salohiyati keng, teran bilimga ega kadrlar faol siyosatga qaytarilmoqda.

YUqorida qayd etilganidek, qo‘shni davlatlarga bo‘lgan siyosatda raqobat emas, hamkorlik yo‘lidan borishning strategik yo‘li belgilandi va samarali amalga oshirilmoqda. Qo‘shning yutug‘i - bu bizning yutug‘imiz shiori negizida jadal rivojlanish tendensiyasi amal qila boshladi.

Uyushmagan yoshlar uchun kafolatlangan bandlikni ta‘minlash, ularni bunyodkorlik ishlariga faol jalb etish, ijtimoiy faollashtirish siyosati yuritilmoqda. Aholining ijtimoiy-maishiy orzulari va real iqtisodiy-moliyaviy imkoniyatlari balansi ta‘minlashga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, arzon farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish, sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimi va arzon uy-joylar qurish dasturi joriy etilib, amaliy samara bera boshladi. Prokuratura xodimlarining barcha ishlab chikaruvchilar, xususan, tadbirkorlar bilan Vatan va jamiyat manfaati yo‘lidagi hamkorligi shakllantirilmokda. Aholining turli tabaqalari, xususan, yoshlar o‘rtasida kitobxonlik ko‘nikmasini shakllantirish, bu jarayon ni har taraflama rag‘batlantirish siyosati amalga oshirilmokda.

O'zbekistonning kam foydalanib kelinayotgan katta imkoniyati, ya'ni, sug'orilmasdan hosil undiriladigan, o'n million gektardan ziyod lalmi erlardan samarali foydalanish masalasi birinchi bor ustuvor vazifa sifatida qo'yildi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarini yanada rivojlantirish dasturi qayta ishlab chikilmoqda. Barcha bog'cha yoshidagi bolalarni bog'cha tizimi ma'rifatidan bahramand etishga erishish vazifalari belgilandi.

Mamlakatimizdagi elektr ishlab chikarish quvvatlari va elektr uzatish vositalarining 65 foizi eskirgani sababli bu sohani tubdan yangilash, mavjud uskunalarni zamonaviylariga almashtirish, yangi energobloklar o'rnatish, shuningdek, 42 ta yangi gidroelektrostansiya qurish, 37 tasini kapital remont qilish, shamol, kuyosh hamda biogazdan elektr energiyasi olish bo'yicha zarur choralar ko'rilmokda.

Nuroniylarni ijtimoiy faollashtirish bo'yicha davlat dasturi qabul kilindi. Ularni jamiyatdagi ma'naviy barqaror muhitni yanada mustahkamlashga yo'naltirish chora-tadbirlari belgilandi.

Sud-huquq tizimi tubdan isloh etildi. Odil sudlovga erishish orqali inson manfaatlarini samarali himoya qilishning huquqiy mexanizmi barpo etildi.

Farmatsevtika sohasini tubdan isloh etishga, 300 dan ortiq dori-darmonni arzonlashtirishga erishildi. Sifatli farmatsevtik mahsulotlar ishlab chiqarish dasturi qabul qilindi.

Ilm-fanga e'tibor kuchaydi. Fanlar akademiyasining maqomi to'la tiklandi. Dissertatsiya himoyalari zamonaviy va an'anaviy yondashuvlar negizida optimallashti.

Tadbirkorlikni keng yoyish, tadbirkorlar faoliyatiga rejasiz, muqobil tekshirishlar orqali xalal berish siyosatiga chek qo'yildi. Bu borada so'z va ish birligi ta'minlandi.

Odamlarni eshitish boshlandi. Ularning zarur muammolari, dardu tashvishlarini o'rganish tizimi yaratildi. Prezidentning Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi faoliyati jamiyatimiz turmush tarzining ajralmas qismiga aylandi.

Banklar faoliyati tubdan isloh etildi. Odamlarning kredit so‘rab banklarga borishi emas, banklarning xonadonlarga borib kredit olishlarini taklif etishdan iborat dunyoda andozasi bo‘lmagan samarali tizim ishlay boshladi.

Mamlakatimizda erkin industrial zonalar tashkil etish ishlarining geografiyasi kengaydi.

Xalqimizning tinchligi, kafolatlangan xavfsizligini ta‘minlash uchun ichki ishlar vazirligi tizimi isloh etildi va profilaktika ishlariga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Mamlakatimizni barqaror va jadal rivojlantirishda millati, dini va tilidan qat‘i nazar, barcha yurtdoshlarimiz, butun xalqimizning aql-zakovati va bunyodkorlik salohiyatiga tayanib ish tutish siyosatiga o‘tildi.

Sug‘orish tizimini tubdan rekonstruksiya qilish, yangi sug‘orish inshootlari, kanallar qurilishi ishlariga tizimli tarzda kirishish bo‘yicha yangi dasturlar kabul qilindi. Mamlakatimizda 1986 yildan buyon birorta sug‘orish tizimini yaxshilashga mo‘ljallangan kanallar qurilmagan, eskilari esa rekonstruksiya qilinmagan.

Qishloqlarda ichimlik suvi ta‘minoti tarmoqlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish dasturi ishlab chiqildi.

Ko‘mir gannarxi qayta ko‘rib chiqildi va uning tannarxi paysaytirilib, aholiga qulay xarid qiymati belgilandi hamda uning sifatini yaxshilash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi.

- SHahar va qishloqlarda transport ga‘minotini yanada yaxshilash va rivojlantirish dasturi qabul qilindi.

- Bozorlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, savdo tizimini takomillashtirish dasturi ishlab chiqildi.

- Qattiq maishiy chiqindilarni sanitariya yo‘li bilan tozalash va zararsizlantirish tizimini yanada takomillashtirish dasturi qabul qilindi (birgina Surxondaryoda 2 million tonna qattiq chiqindi yigilib qolgan).

- Hamkorlik va do‘stlikni tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi deb bilish siyosati yurgizilmoqda.

- Mamlakatimiz hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmasligi, O'zbekiston hududida boshqa davlatlarning harbiy baza va ob'ektlari joylashtirilishiga, shuningdek, harbiy xizmatchilarning yurtimiz hududidan tashqarida bo'lishiga yo'l qo'ymaslik siyosatiga izchil sodiq qolish belgilandi.

- O'zbekistondagi har bir fuqaro, qaysi lavozimda ishlashidan qat'i nazar, avvalo tarbiyachi ekani, farzandlarimiz taqdiri uchun har birimiz mas'ul ekanligimizni anglash tobora kuchaytirilmoqda. Bu masala zamonning o'tkir talabiga aylangan dolzarb muammo sifatida kun tartibiga ko'yilmoqda.

Tarbiya ishlarida integrativ yondashuv, ya'ni hamkorlikda va manzilli yondashuv qaror toptirilmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda davlat va jamoat tashkilotlari, avvalo O'zbekiston yoshlar ittifoqining kuch va imkoniyatlarini birlashtirib, tizimli ish olib borish zarurligi ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Pedagoglarimiz yaxshi biladi, Prezidentimiz Qashqadaryoda saylovoldi uchrashuvda aytganidek, tarbiya, odob-axloq sohasida "amaliy namuna" hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Farzandlarimizga avvalo o'zimiz hamma sohada - Vatanga, xalqqa sadoqatli bo'lishda, ilmga, kasb-hunarga mehr ko'yishda, ota-ona, jamiyat oldidagi burchimizni sidqidildan ado etishda amaliy namuna ko'rsatishimiz kerak.

YOshlar bilan ishlashning tizimli yo'liga asos solinmoqda. YOshlar siyosati to'g'risidagi qonunning yangi tahrirda qabul qilingani tuman hokimlari va ichki ishlar boshliqlarining, mahalla raislarining yoshlar bilan ishlash bo'yicha o'rinbosari shtatlari joriy etilgani bu borada katta qadam bo'ldi.

To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi ishlab chiqildi.

Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi ishlab chiqildi.

Mahalliy byudjetlarning subvensiyaga qaramlik darajasi o'ta jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Ana shu holatdan qutulishning maqbul yo'li sifatida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini jadal rivojlantirish, aholi

bandligini barqaror ta'minlash dasturlari qabul qilindi va hayotga jadal joriy etilmoqda.

Turizm sohasini rivojlantirish, besh yilda xorijdan turistlar qabul qilish darajasini 1,8-2 martagacha oshirish, bu borada xizmat sohasini jadal rivojlantirish dasturlarining qabul qilinishi belgilandi.

O'qish-o'rganish, doimiy izlanish, yangilikka, taraqqiyot cho'qqilarini egallashga intilib yashash va har bir o'zbekistonlikning bir umrlik hamrohi bo'lishi, ulug' mutafakkir YUsof Xos Hojib aytganlaridek, "Dunyoda ikki turli inson haqiqiy inson sanaladi: biri o'rgatuvchi, biri o'rganuvchi"¹. Har bir o'zbekistonlikni haqiqiy inson bo'lish baxtiga sazovor etish maqsadi birinchi o'ringa ko'tarilmoqda.

Aholi bilan bevosita muloqot qilish tizimi barcha sohalarda real mexanizm sifatida ishlay boshladi. Inson manfaatlarini himoya qilish davlatning ustuvor siyosatiga aylanganini keng targ'ib etish ishlari amalga oshirilmoqda.

Tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik holati hamda ularning faoliyat mazmunini tubdan isloh etish dasturi amalga oshirilmokda.

YOsh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ularning ilmiy-tadqiqot natijalarini hayotga tez tatbiq etish, oliy ta'lim muassasalari bilan ilmiy muassasalar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantiruvchi jamg'arma va innovatsiya markazini tuzish masalasi kun tartibiga qo'yildi.

Mamlakatimizdagi aksariyat oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifati xalqaro mezon va andozalarga va real iqtisodiyot talablariga javob bermasligini, bitiruvchilarni aksariyat hollarda kayta o'qitishga to'g'ri kelayotganini e'tiborga olib, oliy ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish bo'yicha Prezident qarori va maxsus dastur qabul qilindi.

Ilmiy texnik taraqqiyotimizni belgilab beradigan aniq fanlar bo'yicha ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etish va ularning moddiy-texnik bazasini har tomonlama uzluksiz mustahkamlab borish rejalari belgilandi.

¹ *Харакатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари.Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. -Б.-28.*

O‘zbekiston milliy kutubxonasida mamlakatimiz kutubxona fondining yagona elektron tarmog‘ini tashkil etish boshlab yuborildi.

Mamlakatimizda ma’naviy muhitni yuksaltirish, madaniyat, san’at, adabiyot sohalarini yanada taraqqiy ettirish, ijod axdining mehnatini rag‘batlantirishga, ularni moddiy va ma’naviy qo‘llab-kuvvatlashga qaratilgan maxsus karor qabul qilindi.

Tadbirkor va fermerlar, ziyolilar, rahbarlar, obro‘-e’tiborli shaxslar, nodavlat tashkilotlar rahbarlari va faollarining O‘zbekistonni rivojlantirishdagi fidoiyligini, barchaga o‘rnak va namuna bo‘lishini vatanparvarlikning amaldagi ko‘rinishi sifatida baholash boshlandi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish ishlariga ustuvor ahamiyat berilib, bu borada 384 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirilgan loyiha amalga oshirilmoqda.

Qonunlar, qarorlar va farmonlarning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri tushuntirish, o‘z vaqtida etkazish, ijrosini samarali tashkil etish hamda qonun talablariga qat’iy amal qilishni ta’minlash siyosati amalga oshirilmoqda.

Barcha sohalarning standart va yagona davlat siyosati asosida faoliyat yuritishini yo‘lga ko‘yish mexanizmi ishga tushirildi. Hozirga qadar dunyodagi 2,5 mingdan ortiq faoliyat standartlaridan atigi 13 foizigina mamlakatimizda amal qilayotgani, bu borada qilinadigan ishlar ko‘lami nechog‘liq katta ekanidan dalolat beradi.

SH.Mirziyoevning oqilona va odilona siyosati natijasida O‘zbekiston taraqqiyotining yangi davri quyidagi xususiyatlarni kasb etib bormoqda:

1.Taraqqiyotning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari hozirgi kunda mikroiqtisodiy natijalar hamda jamiyatning turmush tarzida real namoyon bo‘lmokda. Odamlariig orzulari ularniig imkoniyatlariga mos bo‘lmoqda. Arzon uy-joylar qurish, arzon va qulay tibbiy, farmatsevtik, ijtimoiy xizmatlar tizimini shakllantirish xuddi shu imkoniyatlarii yuzaga keltirmoqda.

2. Davlat tuzilmalari faoliyatining metodologiyasi va metodikasi tubdan o'zgartirilmokda. Odamlar davlatga o'z muammolarining echimini topishda zng ishonchli institut deb qaray boshlashdi. Aholi turli tabakalari vakillarida davlatga bo'lgan ishonch va umid o'sdi.

3. Odamlar islohotlarga, o'zgarishlarga o'z roziligini, xayrixohligini, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarida faol ishtirokchi bo'lishga bo'lgai ishtiyoqini yaqqol ifoda etmoqda. Hamma axborot dasturlarini kutadigan, Vatanimiz erishgan natijalarni boshqa davlatlar bilan taqqoslaydigai, o'zaro suhbatlarda "Prezidentimizga, balli, juda to'g'ri qilyapti", "Adolatli ish bo'lyapti", "O'zi shunday bo'lishi kerak edi", "Xalqning duosini olyapti" kabilidagi iboralarii tez-tez tilga oladigan bo'lishdi.

4. Barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash dasturlari real resurslar, aniq omillar asosiga qurilmokda. Real iqtisodiyotni tarkib toptirish, pul-moliya munosabatlarining samarali tizimini yaratish, iqtisodiy hisobotlarda qo'shib yozish amaliyotidan voz kechishga asoslangan yangicha yondashuv qaror toptirilmoqda.

5. Boshqaruv tizimida insoniy yondashuv ustuvor talabga aylanmoqda. Xalq bilan muloqot tizimli ish boshladi, uyma-uy, xonadonma-xonadon yurib odamlarning muammolarini echish, hamkorlik va real ko'mak taklif etish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

6. Sohalarni rivojlantirishda birinchi marta ma'rifat omiliga tayanish tendensiyasi amal qila boshladi. Bank ma'rifati, fermer ma'rifati, tadbirlar ma'riati iboralari taomilga kiritildi.

7. Qishloqni rivojlantirish, uni industrlashtirish va har bir hududda xizmat sohalarini tashkil etish siyosati keng ko'lamda tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

8. Odamlarda o'z hayotini o'zi obod qila olishga bo'lgan ishtiyoq, jamiyat va Vatan istiqboliga ishonch, o'z iqbolini Vatan ravnaqi bilan bog'liq holda ko'rish harakati kuchaydi.

9. Ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy muammolarni o'rganish va hal etishda aholi barcha qatlamlarining real ishtiroki kuchaydi. Nuroniylarning jamoatchilik nazorati, tomorqa madaniyatini yuksal tirish, O'zbekiston yoshlar ittifoqining uyushmagan yoshlar bilan natijadorlikka asoslangan ish amaliyoti tizimiy xususiyat kasb eta boshladi.

10. Davlat va jamiyat manfaatlari yo'lida ilgari o'zaro bog'lanmagan idora va muassasalar o'rtasida ijtimoiy hamkorlik munosabatlarining keng yoyilishi kuzatilmoqda. Prokuror va tadbirkor, fermer va turli xizmat sohalari o'rtasidagi hamkorlik aloqalari kuchaydi. Prezidentimiz ana shunday ijtimoiy hamkorlikning ahamiyatini alohida ta'kidladi: "Tadbirkor boy bo'lsa, davlat boy bo'ladi. Buning uchun ishbilarmonlarga keng sharoit yaratib berishimiz lozim. Prokuror tadbirkorga ko'makchi bo'lishi, u bilan hamkorlikda ishlashi darkor"¹.

11. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mutlaqo yangi tizimni hayotga joriy qilish amaliyotining zarurati ilmiy jihatdan asoslanib, uning huquqiy poydevori belgilandi. Fermerning ishlab chiqaruvchi, ham qayta ishlovchi hamda o'z mahsulotlarini o'zi sota oluvchi maqomida bo'lishi, sanoat korxonalarining, xususan, enil sanoatning xomashyoni ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi va realizatsiya qiluvchi maqomida bo'lishi belgilandi. 2016 yil kuzi O'zbekiston tarixida yangi taraqqiyot bosqichini boshlab berdi. Shavkat Mirziyoev 2016 yil 9 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qo'shma majlisida O'zbekistonning birinchi Prezidenti I. Karimov tomonidan boshlangan islohotlarni qat'iy davom ettirib milliy taraqqiyotimizni yangi bosqichga olib chiqish masalasi bo'yicha nutq so'zladi. I. Karimov uzoqni ko'ra oladigan siyosiy arbob sifatida mustaqil O'zbekistonni qiyin bir davrda boshqargani, mustaqillikni tamal toshini qo'yib islohotlarning "o'zbek modeli" asosida bozor

¹ Харакатлар стратегияси асосида жадал таракқиёт ва янгиланиш сари.Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. Б.-22.

munosabatlariga bosqichma bosqich o'tish, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarida ulkan yutuqlarga erishilganligini ta'kidladi. SHuningdek, zamon shiddat bilan o'zgarib borayotganligi jamichyatimiz oldida Vatan taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlash, odamlarni hayotdan rozi qilish bo'yicha dolzarb vazifalar turganini asoslab berdi. Hozirgi tahlikali dunyoda ekstremizm, fundamentalizm kabi tahdidlar insoniyat tinchligiga rahna solayotganligini va ularga qarshi kurashda milliy birlik va hamjihatlik bilan jamiyatdagi muammolarni bartaraf etib borish zarurligi haqida fikr bildirdi.

O'zbekiston Prezidenti SHavkat Mirziyoevning asarlarida O'zbekiston taraqqiyoti yangi bosqichining asosiy xususiyatlari dunyoda raqobat kuchayib borayotganligi sharoitida milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, davlat va xalq bilan muloqotni yangi bosqichga olib chiqish asosida inson manfaatlarini ta'minlash, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini yanada mustahkamlash, o'zaro manfaatli teng huquqlilik tamoyillariga asoslangan amaliy ruhdagi tashqi siyosat olib borish tamoyil va vazifalari asoslab berildi

1.2. SH.M.Mirziyoev tomonidan O'zbekistondagi islohotlarning innovatsion tizimining yaratilishi

SH.Mirziyoev asarlarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlariga ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijalarini va nou-xau ishlanmalarni keng joriy etish, ushbu yo'nalishda ilmiy muassasalar va real iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari o'rtasida yaqin hamkorlikni o'rnatish mamlakatni jadal innovatsion rivojlantirishning muhim omili hisoblanishi har tomonlama asoslab berilgan.

SH.Mirziyoev asarlarida innovatsion rivojlanish muammolari tahlilini umumlashtiradigan bo'lsak, innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni to'laqonli realizatsiya qilish, ularni xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning

dolzarbligini hisobga olgan holda ishlab chiqarish tarmoqlariga amaliy joriy qilishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir qator omillar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Xususan:

birinchidan, xorijiy innovatsion va ilmiy markazlarni, etakchi investitsion fondlarni, texnologik agentliklarni, texnoparklar va boshqa manfaatdor sub'ektlarni mahalliy innovatsion ishlanmalarni amalga oshirishda ishtirok etishga faol jalb etish borasida etarli darajada chora-tadbirlar amalga oshirilmayapti;

ikkinchidan, davlat organlari va xususiy sektor vakillari, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari ishtirokida ishlab chiqarish joriy etilgan va muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan texnologiyalarni namoyish etish darajasi pastligicha qolmoqda;

uchinchidan, qulay investitsion muhitni shakllantirish, innovatsion g'oyalar va loyihalarni ishlab chiqish va joriy etish sohasiga investitsiyalarni keng jalbqilish, ilg'or va ilmiy hajmdor texnologiyalarni faol tarqatishning samarali tizimi mavjud emas;

to'rtinchidan, respublika viloyatlari kesimida ilmiy va innovatsion faollik past, bir ishtirokchining qayta-qayta jalb etilishi esa, har yilgi taqdimqilinadigan innovatsion ishlanmalar va mahalliy amaliy tadqiqotlarga bo'lgan buyurtmalar portfel tematikalarining takrorlanishiga olib kelmoqda;

beshinchidan, texnologiyalarni tijoratlashtirish va ularni tashqi bozorlarga olib chiqish, milliy innovatsion tizimni shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish jarayonlariga ko'maklashishning amaldagi mexanizmlarining samarasi past va kutilgan natijalarni bermayapti.

Innovatsion infratuzilmani yanada shakllantirish, tadbirkorlikni, investitsion salohiyatni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish.

Innovatsion rivojlanishning mazmun-mohiyatini to'liqroq tushunish uchun "innovatsiya" tushunchasining ilmiy ta'rifi va ma'nolarining qisqacha ilmiy-nazariy tahliliga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

Jahonning ilg'or mamlakatlarida texnik, iqtisodiy va ijtimoiy faoliyat sohalarining rivojlanishiga kuchli turtki bergan o'ziga xos innovatsion «portlash»

makrosotsiologiya doirasida shakllanuvchi innovatsiyalarni o'rganishning nazariy asoslariga va innovatsion jarayonlarni mantiq va innovatsiya mexanizmlari nuqtai nazaridan empirik tahlil qilishga e'tiborning kuchayishiga olib keldi.

Innovatsiya muammolariga bag'ishlangan asarlarning yuzaki tahliliyoq «yangilik» va «innovatsiya» kabi o'zak (balki jins bildiruvchi) tushunchalarni ajratish imkoniyatini beradi. Ayrim tadqiqotchilar qayd etishlaricha, dastavval «innovatsiya» atamasi paydo bo'lgan, u «so'zlashuv tili»ga XIII asrdayoq kirib kelgan va «o'z davridan o'zib ketgan biror narsani o'ylab topish» degan ma'noni anglatgan². Keyinchalik, XIX asrda u ilmiy bilim sohasiga kirib kelgan va ilmiy bilimning turli sohalarida har xil rol o'ynay boshlagan. Masalan, lingvistikada bu atama grammatik shakllar bir madaniy arealdan boshqa madaniy arealga o'tkazilganida ularda yuz beruvchi o'zgarishlarni anglatgan. Uning assimilyasiyasi va bunda kasb etiladigan yangi sifatlar, «madaniyat tuzilmalari rivojlanishining tabiiy mexanizmi sifatida» talqin qilinuvchi tarkibiy munosabatlar madaniy (tilga oid) innovatsiya degan nom olgan³. Etnografiyada ham shunga o'xshash jarayonlar (bir madaniyatdan boshqa madaniyatga o'tish) madaniy innovatsiya sifatida tavsiflangan. YUrisprudensiyada innovatsiya deganda mavjud majburiyatni boshqa majburiyat bilan almashtirish innovatsiya sifatida tushunilgan. Tabiatshunoslikda ushbu atamadan o'sish jarayonida yuz beruvchi o'zgarishlarni ifodalash uchun foydalanilgan.

Ko'rib turganimizdek, «innovatsiya» tushunchasi tahlil etilish jarayonining shu bosqichidayoq uning talqinida umumiy va xususiy jihatlar namoyon bo'la boshlagan. Bu erda gap innovatsiya ob'ektiga ilgari xos bo'lmagan muayyan yangi sifatning vujudga kelishi haqida boradi. Bu yo ilgari ma'lum bo'lgan narsa yoki hodisani yangi ijtimoiy-madaniy zaminga ko'chirish, yo ilgari ro'yobga chiqarilmagan imkoniyatni o'zlashtirish, yo innovatsiya ob'ektining tadrijiy rivojlanishi yo'li bilan yuz beradi, lekin barcha hollarda ob'ekt o'zining yangicha

² **каранг:** Карпова Ю.А. Инновации, интеллект, образование. – М: Наука,1998. – С.15.

³ **каранг:** Сазонов Б. Институт образования: смена вех // Инновационное движение в образовании. – М., 1997. – С.83.

sifat kasb etishi bilan tavsiflanadi. Bizningcha, bu innovatsiyaning mazmun va mohiyatini belgilovchi mezonlardan biri bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Boshqa bir umumiy yondashuvga ko‘ra, innovatsiya – bu ob‘ektning bir holatdan boshqa holatga o‘ziga xos tarzda o‘tishidir. Ushbu fikr nazariyada innovatsiya shakli xususida mavjud qarama-qarshi nuqtai nazarlarga nisbatan aniq bir to‘xtamga kelish uchun zarur. Xo‘sh, innovatsiya – bu jarayonmi yoki natijami?

Innovatsiya – bu «...yangi turdagi mahsulot va texnologiyalarni ishlab chiqish, yaratish va tarqatish, yangi tashkiliy shakllarni joriy etishga qaratilgan ijodiy faoliyat natijasi»⁴. Bu fikrga YU.A.Karpova «Innovatsiya – bu ijodiy faoliyatning keng miqyosda qo‘llaniladigan va inson, jamiyat va tabiatning hayot faoliyatida sezilarli darajada o‘zgarishlar yuz berishiga olib keladigan progress natijasidir»⁵ deb aniqlik kiritadi. Bunda innovatsiya tushunchasining talqinlarida mavjud farqlarni muallif mazkur tushuncha mazmunining murakkabligi bilan emas, balki nemis tillarida so‘zlarning kelib chiqish xususiyatlari bilan tushuntiradi. Gap shundaki, tushunchaning o‘zi muayyan tarixiy va ijtimoiy-madaniy sharoitlarda amal qilish jarayonida ayni shu sharoitlarga muvofiq keladigan yangicha mazmun kasb etadi va butunlay boshqacha ma‘noni anglatib boshlaydi. Binobarin, tushunchaning mohiyatini keltirib chiqarishda uning tegishli madaniyat va ijtimoiy voqelikdagi o‘rniga qarab mo‘ljallanish zarur. Aks holda atamaning tushunchadan ajralishi yuz berishi muqarrar bo‘lib, bu mohiyatlarning ko‘payishiga olib keladi.

Mualliflarning boshqa bir guruhi innovatsiyaning mohiyatiga jarayon orqali tavsif beradi. Misol uchun, «yangilik» va «innovatsiya» tushunchalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni aniqlash jarayonida narsalar va hodisalarning quyidagi tartibi o‘rnatiladi. «Yangilik – bu aynan vosita (yangi metod, metodika, texnologiya, dastur va sh.k.), innovatsiya – bu ayni shu vositani o‘zlashtirish

⁴ Научно-технический прогресс / Словарь. Сост. Горохов В.Г., Халипов В.Ф. – М., 1987. – 80-б.

⁵ Карпова Ю.А. Инновации, интеллект, образование. – М.: Наука, 1998. – С.21.

jarayonidir»⁶. Yangilikning vosita sifatidagi talqinini hozircha bir chekkaga surib, innovatsiyaning jarayon sifatidagi talqiniga nazar tashlaymiz. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, o'tgan asrda bu tushunchadan shu jumladan biologiyada o'sish bilan bog'liq o'zgarishlarni ifodalash uchun foydalanilgan. O'sish o'z-o'zicha jarayonni anglatadi. Albatta, bu hodisaning mezon sifatidagi muayyan jihatini belgilash uchun etarli shart emas. Ammo, innovatsiya tushunchasining keyingi taqdiriga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning inson va jamiyat hayot faoliyatining deyarli barcha sohalariga ekspansiyasi jarayonida, fenomen butunlay yangi xossalar kasb etishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy diffuziya hisobiga, innovatsiya, bizning nazarimizda, to'laqonli jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ta'lim sohasidagi innovatsion hodisalarni o'rganuvchi ayrim mualliflar «...ta'limning permanentligi konsepsiyasining o'zi o'zgarishlarning permanentligini nazarda tutadi»⁷, deb hisoblaydilar va innovatsiyaga kundalik ishning uyg'un qismi sifatida, ya'ni uzluksiz jarayon sifatida yondashadilar.

Bu erda innovatsiya fenomenining yana bir o'ta zaruriy mezonini qayd etish lozim. Gap shundaki, stixiyali kechadigan, tabiiy jarayondan farqli o'laroq, innovatsiya «...amalga oshiriladigan va boshqariladigan o'zgarishlar, oqilona ta'sir ostida yuz beruvchi o'zgarishlar»⁸ xususiyatini kasb etadi. Boshqacha qilib aytganda, bu sun'iy tarzda tashkil etilgan, muayyan natijaga erishishga qaratilgan va boshqariladigan jarayondir.

Innovatsiya tavsifidagi «natija – jarayon» omillarining muvofiqligi xususidagi bahs-munozaralarga qaytadigan bo'lsak, bizningcha, shuni qayd etishimiz mumkinki, ayni bir hodisaning bu ikki elementini sun'iy qarama-qarshi qo'yish uchun asoslar mavjud emas. Yuqorida zikr etilgan o'zak tushunchalarning o'zaro aloqasini tartibga soladigan bo'lsak, bizning nazarimizda, hodisa sifatidagi innovatsiyaning mazmunini ushbu hodisani «muhitga tizimning bir holatdan boshqa holatga o'tishiga sabab bo'luvchi yangi barqaror elementlarni

⁶ Хомерики О.Г., Поташник М.М., Лоренсов А.В. Развитие школы как инновационный процесс. – М., 1994. – 9-б.

⁷ Ангеловски К. Учителя и инновации. – М.: 1991. – С.16.

⁸ Радугин А.А., Радугин К.А. Введение в менеджмент: социология организаций и управления. – Воронеж, 1995. – С.81.

(yangiliklarni) kirituvchi izchil o'zgarish»⁹ bilan bog'lovchi tasavvur ayniqsa to'liq aks ettiradi. Bunda yangilik sifat o'zgarishi yasash imkoniyatini nazarda tutuvchi mazmuni (mohiyatni) o'zida ifodalaydi, innovatsiya esa konkret ob'ekt sharoitlarida yangilikning mazmunini implantatsiya qilish yoki o'stirish texnologiyasini ta'minlaydi. Ayni shu ob'ektni o'zgartirish innovatsiya predmeti hisoblanadi.

Ko'rib turganimizdek, mazkur yondashuv innovatsiyani boshqarish mumkinligi va zarurligidan dalolat beradi. SHu nuqtai nazardan yondoshilganda, innovatsiya – bu stixiyaning tartibsizligiga barham berishga qodir boshqariladigan jarayondir, degan fikrga barcha tadqiqotchilar ham qo'shilavermaydi. Taniqli sotsiolog olim I.V.Bestujev-Lada innovatsiyani «o'z xususiyatiga ko'ra stixiyali, tartibsiz jarayon, chunki inson zotiga xos bo'lgan yutuqlarga erishishga intilish hamda insonning sifat jihatidan yangi narsa yaratish qobiliyatiga asoslanadi»¹⁰, deb tavsiflaydi. Bizning nazarimizda, bu erda gap innovatsiyaning ijodiy tabiati haqida boradi, bunda ijodning muhim xossalari to'laligicha innovatsiyaga ko'chiriladiki, buni to'g'ri deb aytish qiyin. Darhaqiqat, ijod ko'p jihatdan spontan, impulsiv, tabiatan o'zgaruvchan jarayon. U shaxsning ruhiyatida yuz beradi. «Bu faoliyat emas, balki inson mohiyatining spontan namoyon bo'lishidir»¹¹, deb yozadi V.N.Drujinin. «Ijodiy faoliyatda eng muhimi cheklangan moddiy natija emas, balki bunyodkorlik, madaniyat yaratish qobiliyatining namoyon bo'lishi va takomillashuvidir»¹², deb ta'kidlaydi boshqa bir tadqiqotchi. Bu fikrga qo'shilmaslik qiyin, lekin bu erda gap boshqa hodisaning tabiati haqida boradi.

Birinchiidan, «yutuqlarga erishish»ga bo'lgan ehtiyoj ijod qilishga, haqiqatning tagiga etish va o'zligini anglash yo'lida izlanishlarga bo'lgan sof insoniy ehtiyoj bilan doim ham muvofiq kelavermaydi. Ikkinchiidan, ehtiyoj

⁹ Управление развитием школы / Под ред. Поташника М.М. и Лазарева В.С. – М.: 1995. – С.103.

¹⁰ Бестужев-Лада И.В. «Алгоритм» социального нововведения // Социологические исследования. 1991. №9. – С. 85.

¹¹ Дружинин В.Н. Психодиагностика общих способностей. – М.: Луч, 1996. –С.46

¹² Гольдентрихт С.С. Методологические проблемы общей теории творчества // Диалектика и теория творчества. – М.: Наука, 1987. – С. 6.

sifatidagi ijod va unga muvofiq keluvchi qobiliyatlar innovatsion faoliyatning zaruriy omili sanalsa-da, innovatsiyaning inson yoki kishilar muayyan birligining ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va uyushtirish shakli sifatidagi o'ziga xos mohiyatini to'la aks ettirmaydi. Uchinchidan, innovatsiya asosiy urg'uni shaxsning o'zini o'zi o'zgartirishga bo'lgan ehtiyojidan tizimli sifatning o'zgarishi tarzida namoyon bo'luvchi sirdagi «moddiy» natijaga ko'chiradi. Darvoqe, bunday mo'ljalning mavjudligini yuqorida keltirilgan fikr muallifining sa'y-harakatlari ham tasdiqlaydi: u «ishni o'z holiga tashlab qo'ymaslik» uchun innovatsion muhitni tashkillashtirishning optimal shakllari, usullari va vositalarini belgilashga harakat qiladi. Binobarin, ijod innovatsiyaning zaruriy, lekin etarli bo'lmagan shartidir. Lo'nda qilib aytganda, innovatsiya ijodning amalda namoyon bo'lish shakllaridan biri, ijodiy faoliyatni tashkillashtirish va uning yangilik sifatidagi natijasiga erishish usulidir.

Innovatsiyaning bu tomoni ham o'z muammosiga ega: yangilik o'zi nima? Innovatsiyaning mazmun va mohiyatini belgilovchi bu muhim hodisaning qanday mezonlari bor? Ijodiy jarayonning «moddiylashgan» natijasi haqidagi nuqtai nazarga amal qiladigan bo'lsak, «yangilik» ijodiy echim sifatida namoyon bo'ladi. O'z navbatida, ijodiy echim ham serqirra hodisadir, chunki «...mavjud metodlarni, ba'zan an'analar, asosiy prinsiplar va hatto odamlarning dunyoqarashini o'zgartiradi»¹³. «YAngilik»ni kashfiyot bilan bog'lasak, mulohazalarning boshqa, lekin shu darajada serqirra mantiqi namoyon bo'ladi, chunki «...ilmiy kashfiyot – bu konseptual tizim (nazariya, prinsip)ni yaratish ham, qonunni ta'riflash ham, yangi hodisani aniqlash ham, yangi asbob, apparatni ixtiro qilish hamdir»¹⁴. YA'ni umumiy tasavvur hosil qilish mumkin, lekin aniq va ravshanlik darajasiga erishishga hali ancha bor. Lug'atlarga nazar tashlash ham masalaga oydinlik kiritmaydi: ularda «yangilik» birinchi marta yaratilgan yoki bajarilgan, eskining o'rniga yaqinda paydo bo'lgan yoki vujudga kelgan, yangi kashf etilgan, yaqin

¹³ Лук А.Н. Мышление и творчество. – М.: 1976. – С.120.

¹⁴ Коршунов А.М. Теория отражения и творчество. – М.: 1971. – С.226.

o‘tmishga yoki hozirgi davrga tegishli bo‘lgan, lozim darajada tanish bo‘lmagan narsa yoki hodisa sifatida tavsiflanadi¹⁵.

Bunday tavsiflarga amal qiladigan bo‘lsak, vazirlikning muayyan kursni joriy etishga doir har qanday yo‘riqnomasini innovatsiya sifatida muayyan pedagogik tizimni yoki ta‘lim texnologiyasini o‘zlashtirishdan ajratish qiyin. Zero oliy ta‘limning ta‘lim muhiti uchun bularning barchasi amalda yangilik bo‘lishi va nazariy jihatdan ayni bir algoritmgga bo‘ysunishi mumkin.

E.M.Rojers amerikalik va ayrim evropalik nazariyachilarning tadqiqotlarini tahlil qilish asosida: «Yangilik – bu konkret shaxs uchun yangi bo‘lgan g‘oyadir. g‘oya ob‘ektiv jihatdan yangi yoki yangi emasligi ahamiyatga ega emas, biz uni mazkur g‘oya kashf etilgan yoki birinchi marta qo‘llanilgan beri o‘tgan vaqtda aniqlaymiz»¹⁶, degan fikrni ilgari suradi. Agar bu nuqtai nazarga qo‘shiladigan bo‘lsak, Erda yashaydigan har bir inson innovatordir, chunki hayotga qadam qo‘yar va odamlar dunyosida o‘zining o‘rnini belgilar ekan, u muayyan g‘oyalarni o‘zi uchun kashf qilishi va ulardan hayotda foydalanishi muqarrardir, degan xulosaga kelishimiz kerak bo‘ladi. Albatta, «yangilik» tushunchasining bunday keng talqiniga qo‘shilish qiyin.

Yangilik haqidagi bizning tasavvurimizga fransuz tadqiqotchisi E.Bransuik ilgari surgan nuqtai nazar ancha yaqin turadi. U ta‘lim sohasida mavjud yangiliklarni tahlil qilar ekan, ularning kamida uch turini ajratishni taklif qiladi:

- birinchidan, zamirida butunlay yangi, ilgari ma‘lum bo‘lmagan ta‘lim g‘oyalari va harakatlar yotuvchi yangiliklar (ya‘ni kashfiyotlar). Muallif butunlay yangi, original g‘oyalar juda kamligini ta‘kidlaydi;

- ikkinchidan, negizini moslashtirilgan, kengaytirilgan yoki takomillashtirilgan g‘oyalar va harakatlar tashkil etuvchi, mazkur muhitda va mazkur davrda alohida dolzarb ahamiyat kasb etuvchi yangiliklar;

- uchinchidan, o‘zgargan sharoitlarda maqsadlar qaytadan qo‘yilishi munosabati bilan yuzaga keluvchi yangiliklar. Bunda ilgari qo‘llanilgan g‘oyalarni

¹⁵ Қаранг: Ожегов С.И. Словарь русского языка. – М.: 1978. – С. 381.

¹⁶ Ангеловски К. Учителя и инновации.– М.: Наука, 1991. – С.35.

amalga oshirish borasida ilgari mavjud bo'lgan harakatlar yangilanadi, chunki yangi sharoit ularning yordamida rejalashtirilgan maqsadlarga erishish uchun imkoniyat yaratadi¹⁷.

Innovatsiyada yangilik – bu davr va sharoit taqozosi (rivojlanish ehtiyojlari) bilan belgilangan mohiyat bo'lib, uning atrofida yangilikning mazkur tizimda ilgari qo'llanilgan tushunchalardan tizimning belgilariga ta'sir ko'rsatish darajasiga ko'ra butunlay farq qiladigan mazmuni shakllanadi. Taxmin qilinayotgan natijaga erishishni ta'minlaydigan elementlar, munosabatlar va harakatlarning muayyan tizimini o'zida ifodalovchi jarayon innovatsiya hisoblanadi. Aynan innovatsiya rivojlanishning aniq va muayyan shakli sanalgani bois, innovatsiyani boshqarish (yoki innovatsiya yordamida boshqarish) rivojlanishni boshqarishni ta'minlaydi.

SHunday qilib, innovatsiya rivojlanishning muhim ijtimoiy mexanizmlaridan biriga aylanadi.

YU.A.Karpova adabiyotlarda mavjud ishlanmalarga innovatsion jarayonni tashkillashtirishning sof texnik yoki boshqaruvga oid modellarining bir yoqlamaligini chetlab o'tuvchi falsafiy tahlil nuqtai nazaridan tanqidiy ko'z bilan qarash orqali ushbu muammoni echishga nisbatan o'z yondashuvini taklif qiladi. Ko'rib chiqilayotgan yondashuvlarning kamchiligi sifatida ular jarayonning bir yoki bir nechta bosqichini vaqtda va makonda tavsiflash bilan kifoyalinishini qayd etib, u innovatsion jarayonda quyidagi bosqichlarni ajratishni taklif qiladi:

- ijtimoiy ehtiyojlarni anglab etish yoki prognozlashtirish;
- muammoni echish konsepsiyasini izlash;
- muammoni o'rganish;
- innovatsiyalarni ishlab chiqish;
- o'zlashtirish;
- tarqatish (diffuziya);
- madaniyatda mujassamlashtirish va integratsiya.¹⁸

¹⁷ Ангеловски К. Учителя и инновации. – М.: Наука, 1991. – С.35.

¹⁸ Қаранг: Карпова Ю.А. Инновации, интеллект, образование. – М.: 1998. – С.23.

Bizningcha, ushbu yondashuvning diqqatga sazovor jihati shu bilan belgilanadiki, unda innovatsiyaning mazkur fenomen amal qiladigan turli xil xususiyatli sohalarni qamrab oluvchi polifunksional hodisa sifatidagi yaxlitligi ta'minlangan. «Innovatsion faoliyatning politsentrizmi uning barcha elementlarini, chunonchi: intellektual-boshqaruv, informatsion-joriy etish va madaniy-izlanish sohaslarini qamrab oladi. U ilmiy yutuqlarni o'zlashtirishnigina emas, balki madaniy an'analarni tiklashni ham nazarda tutadi»¹⁹.

SHuni alohida ta'kidlash o'rinliki, Prezidentimiz tomonidan xalqimizning turmush darajasini yangi bosqichga olib chiqish, davlatimizni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamdagi chora-tadbirlarni qamrab olgan Harakatlar strategiyasi ishlab chiqilishi islohotlarga o'ziga xos innovatsion yondashuvning namunasi.

SH.Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylanganidan keyingi dastlabki kunlarda mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi vakillari bilan uchrashib "Ilm-fan yutuqlari Vatanimiz ravnaqiga xizmat qilsin" nomli nutq so'zladi. Prezidentimiz bu nutqida mustaqillik yillarida O'zbekiston ilm-fani erishgan yutuqlar va bu sohada hal etilishi zarur bo'lgan muammolarni atroflicha tahlil qilib berdi. Prezidentimiz ushbu nutqida respublikasmiz ilm-fani salohiyatini zamon talablari darajasida rivojlantirish, fundamental tadqiqotlarni davlat tomonidan moliyalashtirish asosida innovatsion g'oya va texnologiyalarni rivojlantirish, ilm-fan vakillari mehnatini rag'batlantirish masalalariga katta e'tibor qaratdi. Jumladan, ushbu uchrashuvda Prezidentimiz innovatsion rivojlanish muammolariga olimlarimiz e'tiborini qaratib shunday dedi: "Hammamiz yaxshi bilamiz, bugungi davr yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar zamonidir. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o'z oldiga nafaqat ko'plab mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o'tish vazifasini qo'yimoqda. YA'ni, o'z iqtisodiyotini mavjud tabiiy resurslarni sarflash evaziga emas, innovatsion mahsulotlar yaratish,

¹⁹ Қаранг: Режабек Е.Я. Что такое постиндустриализм // Инновационные подходы в науке. – Ростов-на-Дону, Феникс, 1995. – С.27.

o‘zlashtirish va ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali rivojlantirish taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari eng avvalo shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog‘liq”.¹

SHavkat Mirziyoev o‘z nutqida O‘zbekistondagi islohotlarning innovatsion tizimining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. Mamlakatimizda ilm-fanni, ilmiy-innovatsion faoliyatni barqaror rivojlantirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilayotganligini ta’kidladi:

Birinchidan, ilmiy-innovatsion faoliyatni kafolatli moliyalashtirish uchun davlat byudjeti, ilmiy- texnikaviy, innovatsion fondlar, investitsiyalar, shuningdek, investorlar, homiylar mablag‘larini keng jalb qilish choralari ko‘riladi.

SHu maqsadda Innovatsion faoliyatni qo‘llab- quvvatlash respublika fondi tashkil etiladi.

Fond mablag‘lari hisobidan zamonaviy ilmiy asbob-uskunalar, jihozlar sotib olish, shuningdek, yosh olimlarning dunyoning etakchi ilmiy markazlari va universitetlarida stajirovkadan o‘tishini tashkil etish uchun har yili kamida 10 million AQSH dollari miqdorida mablag‘ ajratiladi.

Ikkinchidan, innovatsion izlanishlarni quyidagi sohalarda kuchaytirish rejalashtirilmokda:

kimyo sanoati sohasida:

- mahalliy xomashyoni qayta ishlash hisobidan yangi, samarali hamda oziqlantirish darajasi yuqori bo‘lgan o‘g‘itlar va suspenziyalashgan murakkab o‘g‘itlar ishlab chiqarish;

- o‘simliklar urug‘iga kimyoviy ishlov beruvchi preparatlar, yumshoq ta’sir qiluvchi ko‘pfunksional defoliantlar ishlab chiqarishni kengaytirish zarur.

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз.Т.: “Ўзбекистон”, 2017. Б.-168.

Neft-gaz sanoati sohasida:

- korxonalarda texnologik jarayonlarni kompleks avtomatik boshqarish tizimini o'rnatish;
- murakkab sharoitlarda qidiruv va quduqlarni burg'ulash jarayonlarini engillashtirish uchun suvda eriydigan reagentlar ishlab chiqarish;
- neft fraksiyalarini va tabiiy gazni gidrotozalash uchun himoya qatlami katalizatorlarini ishlab chiqarish texnologiyasini joriy qilish lozim.

Qishloq xo'jaligi sohasida:

- hujayralar texnologiyasi asosida virussiz, kaal-lik va zararkunandalarga chidamli qishloq xo'jaligi ekinlari (meva, sabzavot, don va boshqalar) navlarini etishtirish;
- tezpishar, suvsizlikka chidamli, yuqori sifatli va uzun tolali trans-gen g'o'za navlarini kengaytirish;
- mahalliy xomashyo asosida veterinariya preiaratlarini ishlab chiqarishni tashkil etish;
- hosildorligi past yaylovlarni yaxshilash uchun ozuqabop o'simliklar uruglarini ko'paytirish talab etilmoqda.

Farmatsevtika sohasida:

- dorivor o'simliklar turlari va ular etishtiriladigan maydonlarni kengaytirish;
- dorivor o'simliklarni qayta ishlash va farmatsevtika sanoatida dori vositalari substansiyalarini ishlab chiqarishni kengaytirish.

Engil sanoat sohasida:

- paxta va tarkibida ipak bo'lgan ip-kalava asosida ikki qatlamli trikotaj mahsulotlari olish;
- mahalliy xomashyolardan samarali foydalanib, trikotaj mato ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish.

Qayta tiklanadigan energiya manbalari sohasida:

- olis va chekka qishloqlarda energiya ta'minotini yaxshilash va seysmik stansiya tarmoqlarining uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun tabiat in'omi

bo'lgan quyosh, shamol, suv va boshqa manbalardan samarali foydalanishni tashkil qilish bo'yicha muhim vazifalar turibdi.

Uchinchidan, mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun muhim va istiqbolli, noyob xususiyatlarga ega bo'lgan materiallar, nanotexnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, yangi kimyo va biotexnologiya sohalari fundamental va amaliy izlanishlarning ustuvor yo'nalishlari etib belgilanishi lozim.

To'rtinchidan, etakchi olimlar, iste'dodli yosh ilmiy xodimlarning faoliyati va ilmiy taqdimotlarini qo'llab-quvvatlash, jamiyatda ilm-fan namoyandalarining obro'-e'tibori va nufuzini oshirish davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri bo'ladi. SHu maqsadda mamlakatimiz Prezidenti va hukumatining bir qator qarorlari qabul qilinadi. Jumladan, kuni kecha bu boradagi birinchi farmonga imzo chekilganini ma'lum qilmoqchiman. Ana shu farmon asosida akademik unvoni uchun beriladigan gonorar miqdori eng kam ish haqining 4 barobaridan 10 barobariga qadar ko'tarildi.

Eng muhimi, bu pul mablag'laridan umuman soliq olinmaydi.

Hurmatli akademiklarimiz o'z salomatliklarini tiklashlari uchun yiliga bir marta o'zlariga qulay vaqtda davlat hisobidan yurtimizdagi sanatoriylarga bepul yo'llanmalar bilan ta'minlanadi.

Bir so'z bilan aytganda, Fanlar akademiyasini isloh qilish va rivojlantirish payti keldi. Uylaymanki, bu fikrga sizlar ham qo'shilasiz.

SHu o'rinda yana bir muhim masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Ma'lumki, bitta fan doktori, professor, ayniqsa, akademikning haqiqiy olim bo'lib kamol topishi uchun davlat va jamiyat unga kamida 30 - 40 yil vaqt, katta mehnat va mablag' sarflaydi. Akademik degan yuksak darajaga erishish - bu albatta oson emas. Bunday baxt har kimga ham nasib qilavermaydi. Akademiklar millatning faxri, g'ururi, xalqning yuzi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Afsuski, biz keyingi vaqtda zahmatkash olimlarimizning ilmiy izlanishlari va erishayotgan yutuqlarini keng yoritish, atroflicha targ'ib qilish masalasini e'tiborimizdan biroz chetda qoldirayotganimizni ham ochiq aytish kerak. Ilm-fan yutuqlarini jamoatchilik, avvalo, yoshlarimiz o'rtasida keng ommalashtirish, bu

sohaga ularning e'tibori va qiziqishini kuchaytirish bo'yicha biz hali ko'p ish qilishimiz zarur.

Bir vaqtlar «Fan va turmush» degan jurnalimiz bugun yurtimizda qanday mashhur bo'lganini hammamiz yaxshi eslaymiz.

SHu munosabat bilan hukumatga mamlakatimizda ilm-fan yutuklarini har tomonlama ommalashtirish maqsadida Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalarini jalb etgan holda, bu masala bo'yicha aniq chora- tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish vazifasi topshiriladi. Ushbu rejada «Fan va turmush», «XXI asr texnologiyalari» kabi ilmiy-ommabop jurnallar, shuningdek, maxsus ilmiy jurnallar va byulletenlarning moddiy-texnik bazasini, kadrlar salohiyatini mustahkamlash masalalari ham ko'zda tutilishi kerak.

Mamlakatimizda ilm-fanni dunyoda hech kimdan kam bo'lmagan darajada rivojlantirish uchun sizlarga va barcha olimlar, ilmiy jamoalarga zamonaviy shart-sharoitlarni yaragib berish biz uchun ham qarz, ham farzdir.

Eng muhimi, siz, muhtaram olimlarimizning O'zbekiston ilm-fanining bugungi va ertangi kuniga befarq emasligingiz, bu masalada astoydil jon kuydirayotganingizni biz yuksak qadrlaymiz.

Mamlakatimizda tashkil etilgan elektron qabulxona orqali aksariyat olimlarimiz bu borada o'z fikr-mulohazalarini bildirganlari albatta e'tiborga loyiq¹. Hozirgi davrda er yuzidagi davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti mamlakat hududining kattaligi yoki tabiiy resurslarning ko'pligi bilan emas avvalo innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga va ijtimoiy hayotga qay darajada tadbiq etish darajasi bilan belgilanadi. O'zbekistonning keyingi 20 yillik davr mobaynidagi innovatsion rivojlanish darajasi dunyoning rivojlagan davlatlari darajasidan orqada qolganligi hech kimga sir emas. Bu hol o'z navbatida mamlakatimiz eksport salohiyatiga, iqtisodiyotning entensiv rivojlanishiga hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar to'planib qolishiga, mamlakat ichki

¹ Қаранг: Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.Т.: “Ўзбекистон”, 2017. Б.-166-180.

imkoniyatlaridan optimal darajada samarali foydalanilmasligiga olib keldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “... Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. CHunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? YAngi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.

Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak.¹ Prezidentimizning ushbu konseptual fikrlaridan shunday xulosa kelib chiqadiki, O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichidagi islohotlar innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarga asoslanadi va islohotlar natijadorligini ham innovatsion faoliyat belgilab beradi. Ana shuni teran anglagan Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev tomonidan O‘zbekistondagi islohotlarning innovatsion tizimi yaratildi va hayotga samarali tadbiiq etilmoqda.

1.3. Harakatlar strategiyasi ijtimoiy taraqqiyotga innovatsion yondashuv sifatida

Har bir davrning o‘z taraqqiyot omillari, ehtiyojlari, talablari va hayotiy tamoyillari bo‘ladi. Tabiiyki, bularning barchasini shakllantirish va rivojlantirishga, ularga alohida ma’no-mazmun bag‘ishlashga, bu davrda davlat, jamiyat hayoti, ijtimoiy- siyosiy institutlar faoliyatining aniq yo‘nalishlarini belgilab beradigan ulkan tarixiy voqealar bo‘ladi.

2016 yil 4 dekabrda mamlakatimizda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, hech shubhasiz, yangi tariximizdagi ana shunday beqiyos hodisa bo‘ldi.

CHunki aynan ana shu saylovda butun O‘zbekiston xalki o‘zining buyuk siyosiy irodasi, huquqiy madaniyagini namoyon etib, mamlakatimizning istikboldagi taraqqiyoti, xalqimiz, farzandlarimizning yorug‘ kelajag i, farovon

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. / Халқ сўзи газетаси. 2017 йил, 23 декабрь.

hayoti uchun ongli ravishda ovoz berdi. De- mokratik talablarga to'liq mos tarzda, milliy saylov konunchiligi va xalqaro standart- lar doirasida, ochiq va oshkora o'tgan saylov jarayonini 5 ta nufuzli xalkaro tashkilot va 46 ta davlatdan 600 ga yakin kuzatuvchi kuzatib bordi.

YUksak saviyada o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati -- O'zbekiston Liberal-demokratik iartiyasidan nomzod sifatida ishtirok etgan SHavkat Miromonovich Mirziyoev saylovchilar umumiy sonining 88,61 foiz ovozini olib g'olib bo'ldi.

Toshkent shahrida 2016 yil 14 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishi tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis qonunchilik palagasi va Senatining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi. Tantanali marosimda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev nutq so'zladi. Davlatimiz rahbari yaqin va o'rta istikbolda mamlakatimiz oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifalarga atroflicha to'xtalib o'tdi. Ma'lumki, bu vazifalarga Prezidentimizning saylovoldi dasturida alohida e'tibor qaratilgan edi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilar vakillari bilan o'tkazilgan uchrashuvlar jarayonida ular yanada boyitildi.

«Bizning vazifamiz - to'plangan tajriba va ilg'or xalqaro amaliyotga suyangan holda, - dedi Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishi marosimiga bag'ishlangan nutqida, - o'zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat'iy amalga oshirishdan iborat. SHu borada yaqin va o'rta muddatga belgilangan marralarga erishish uchun qat'iyat bilan harakat qilishimiz zarur. SHu maksadda 2017-2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini ishlab chiqish yaqin kunlarda yakunlanadi»¹.

Haqiqatan ham, Prezidentimizning bevosita rahbarligi ostida «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» Davlat dasturini ham o'z ichiga oladigan

¹ «Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олийжаноб халқимиз билан курамиз. Ш. Мирзиёевнинг Ўзбекистон Руспубликаси Президенти лавозимига киришиш танта- нали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг кўшма мажлисидаги нутқи. / «Халқ сўзи», 2016 йил 15 декабрь.

mazkur keng ko‘lamli dasturiy hujjat har tomonlama puxta ishlab chiqildi. O‘zbekiston Res-publikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yi- cha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi 2017 yil 7 fevralda imzolangan Farmoniga muvofiq uni hayotga joriy etish bo‘yicha qonuniy tamoyil va mexanizmlar tasdiqlandi. Mazkur Farmonga berilgan sharhda Harakatlar strategiyasining ahamiyati alohida ta’kidlanib, bu boradagi loyihalarni tayyorlash davomida aholining keng qatlamlari orasida qizg‘in muhokamalar olib borilgani, ular turli axborot maydonlariga joylash- tirilgani, buning natijasida ko‘plab taklif va mulohazalar kelib tushgani, xususan, «Qonun hujjatlari ta’sirini baholash tizimi» portalida yo‘lga qo‘yilgan muhokamalar tufayli kelib tushgan 1310 ta taklif-mulohaza asosida «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» Davlat dasturining 41 ta bandi qayta ko‘rib chiqilgani qayd eti- ladi.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatimizda ham, chet el ijtimoiy-siyosiy doiralari tomonidan ham katta qiziqish va e’tibor bilan o‘rganilmoqda. Bu borada atoqli olimlar, nufuzli ekspert va kuzatuvchilar, turli darajadagi ko‘zga ko‘ringan rahbarlar o‘z fikr-mulohazalarini bildirmoqdalar. Harakatlar strategiyasining har bir ustuvor yo‘nalishi mamlakatimiz taraqqiyoti uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular quyidagilardan iborat.

Birinchi yo‘nalishda davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari alohida belgilab beriladi. Unda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis va siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, shu orqali qonun ustuvorligiga eri- shish asnosida jamiyatda boshqaruvning erkin va xalq hokimiyatchiligi tamoyillarini chuqurlashtirishga erishiladi. Davlat boshqaruvi tizimini liberallashtirish, turli byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, davlat boshqaruvida keng jamoatchilikning faol ishtirokini ta’minlash choralarini ko‘rish bo‘yicha aniq g‘oyalar ilgari suriladi. Ochiq jamiyat qurish. davlat va fuqaro munosabatlarini mustahkamlash va natijada O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida muhrlab ko‘yilganidek, davlatning yagona va birdan-bir manbai

xalq ekani, davlat xalq manfaatlarini himoya qilishi, ayni paytda xalq o'z maqsad va intilishlarini, orzu-umidlarini davlat timsolida ko'rishi kabi prinsip va koidalarni to'lik amalga oshirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

Ikkinchi yo'nalish qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan iborat. Bunda sud hokimiyatining chinakam samaradorligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demok- ratlashtirish va takomillashtirish ustuvor vazifa qilib qo'yildi.

Mazkur yo'nalishda fukarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash, qonun ustuvorligiga erishish orqali inson manfaatlarini himoya qilish, kabul qilingan barcha konunlarning to'la va samarali ishlashi bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishga jiddiy e'tibor beriladi. Oliy sud fa- oliyatini isloh qilish, uning zamonaviy, hozirgi kun talablari asosida ishlaydigan tizimini vujudga keltirish borasida yangi g'oyalar ilgari surildi. Jumladan, ma'mu- riy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish orqali adolatli, xalqchil, fuqarolar manfaatlarini to'la himoya qila oladigan, ularning muammolarini o'z vaqtida hal qilib beradigan sud tizimini vujudga keltirish talab etiladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish, eng muhimi, turli hukukbuzarlpklarning oldini olish. ularning sodir etilmasligi choralarni ko'rish. profilaktika tizimini yanada chuqurlashtirish va samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, sud-huquq tizimida konunpylikni yanada mustahkamlash. konunga rioya qilish va qonun ustuvorligiga erishish orqali sud va sudlovning yuksak madaniyatiga erishish yo'l-yo'riqlari aniq-ravshan aks ettiriladi.

YUridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish orqali sud-huquq organlarini «jazolovchi organdan fukarolar manfaatini himoya kiladigan, ularning kundalik yumushlariga yordam beradigan, har qanday muammolarini qonun doirasida hal qilib beradigan xizmatlar organiga aylantirish» (Islom Karimov) mexanizmi- ning yukori saviyada ishlashini ta'minlash bo'yicha amaliy echim va takliflar ilgari suriladi.

Uchinchi yo‘nalish iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini o‘zida ifoda etadi. Bunda makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini saqlab kolish, iqtisodiyotning etakchi tarmoklarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning rakobatdoshligini oshirish, mamlakat eksport salohiyatini kuchaytirish bosh vazifa qilib ko‘yilgan.

Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, tuproq unumdorligini va ekinlar hosildorligini oshirish, yangi va xaridorgir mahsulotlar etishtirish orqali jahon bozoriga chiqishning yangi yo‘nalishlarini joriy etish nazarda tutiladi.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk hukukini himoya qilish, mulkka egalik qilish va uning hajmini oshirish orkali yukori samaradorlikka erishish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, uni rag‘batlantirish mo‘ljallanmoqda. Viloyat, tuman va shaxarlarni ularning tabiiy-geografik imkoniyatlari, er sharoiti va dehqonchilik madaniyatini nazarda tutgan holda, hududiy ehtiyoj va manfaatlar nuqtai nazaridan iqtisodiy rivojlantirish choralarini ko‘rish belgilangan.

To‘rtinchi yo‘nalishda ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari o‘z ifodasini topgan. Bunda aholi bandligi va uning real daromadlarini izchil oshirish, jumladan, mehnatga layoqatli aholi qatlami uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, mehnat faoliyatining yangi shakl va turlarini joriy etish nazarda tutilmoqda. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali jamiyatda sog‘lom turmush tarzini yanada chuqurlashtirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, axolini arzon uy-joylar bilan ta‘minlash, hayot sharoitlarini yaxshilash, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni modernizatsiya qilish orkali uzoq istiqbolga mo‘ljallangan va munosib turmush darajasini ta‘minlaydigan yuksak madaniyatli yashash sharoitiga erishish chora-tadbirlarini ko‘rish eng muhim vazifa qilib ko‘yilgan.

Ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirishga, har tomonlama barkamol, etuk inson - yuqori malakali mutaxassisni tarbiyalashga alohida e‘tibor beriladi.

Bu esa yoshlarga oid davlat siyosatini butun choralar bilan takomillashtirishni taqozo etadi.

Beshinchi yo‘nalish xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chukuro‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor vazifalar bilan bogliq bo‘lib, bunda dunyo kalqib turgan, turli mintaqalarda urush davom etayotgan, qon to‘kilayotgan bir sharoitda milliy xavfsizlikni ta‘minlashga jiddiy e‘tibor berish eng muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Undan ortiq diniy konfessiyalar, 130dan ziyod millat va elat vakillari yashayotgan Uzbekis- tonda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash, o‘zaro ishonch, bir-birini tushunish, turli e‘tiqod va madaniyatlarni hurmat qilish singari bag‘rikenglik fazilatlarini yanadachuqurlashtirishning axamiyati bekiyos ekanligi ta‘kidlanadi. O‘zbekiston deb atalgan umumiy xonadonimiz, 32 millionli oilamiz istikboli uchun diniy e‘tikodi, milliy mansubligi. kasbu kori va yoshidan kat‘i nazar. har bir fukaro mas‘ul ekanini anglash, farzandlarimizni shu ruxda tarbiyalash asosiy vazifa etib belgilangan.

O‘zbekistonning tashki siyosagida, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanganidek, davlatlarning suverenitetini, xududiy yaxlitligini xurmat kilish, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan taxdid kilmaslik. chegaralarning daxlsizligini saqlash, nizolarni tinch yo‘l bilan xal etish, boshka davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik koidalariga va xalkaro xukukning umume‘tirof etilgan boshka qoida va normalariga asoslanib, o‘zaro manfaatli va amaliy tashki siyosat olib borish bo‘yicha ustuvor yo‘na- lishlarini ishlab chikish muhim vazifa kilib ko‘yilgan.

Aytish mumkinki, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish- ning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi o‘tgan 25 yil davomida mamlakatimiz erishgan ulkan yutuklar, tarixiy tajribalarni umumlashtirib, hozirgi kunda davrning o‘zi oldimizga ko‘yayotgan dolzarb masalalarni hisobga olib, keyingi besh yilga va undan keyingi davrga mo‘ljallangan garixiy tarakkiyotning yangi ufklarini ochib berishga karatilgan

bo'lib, u o'zining mohiyat e'tibori bilan O'zbekistonni yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarishni ta'minlaydigan strategik dasturdir.

Albatta, xalqimiz o'rtasida «Harakatlar strategiyasi» degan nom bilan tobora mashxur bo'lib, uning hayotiga chukur kirib borayotgan mazkur dasturning xar bir yo'nalishi va bandi, uning ajralmas kismi bo'lgan «Xalk bilan mulokot va inson manfaatlari yili» Davlat dasturining samarali amalga oshirilishi har birimizning mazkur jarayonda ongli va vatanparvar fukaro, shu yurtning fidoyi farzandi sifatida faol ishtirok etishimizga bevosita bog'likdir. Buning uchun esa eng avvalo, Harakatlar strategiyasining ma'no-mazmunini. uning xar bir yo'nalish bo'yicha ko'yilayotgan amaliy va dolzarb vazifalarini chuqur tushunib olishimiz kerak.

Mamlakatimizda Prezidentimiz SHavkat Mirziyoevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil amalga oshirilayotgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasi taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonning amaliy natijalari, belgi va xususiyatlari bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalarida, eng muhimi, xalqimizning ongu tafakkuri, intilish va harakatlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. SHu ma'noda, Harakatlar strategiyasi O'zbekistonni tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan zamon talablari asosida jadal rivojlantirishning ilmiy-nazariy, amaliy-konstruktiv asoslarini belgilab beradigan, taraqqiyotning yangi davri uchun mo'ljallangan muhim dasturilamaldir, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Bu keng ko'lamlı, noyob hujjat davlatimizning barcha sohalarida yangicha yondashuv va mezonlarni joriy etish, aholining barcha qatlamlari o'rtasida tashabbuskorlik, tadbirkorlik, elu yurtimiz taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyat va daxldorlik tuyg'usini oshirish, aniq tizim asosidagi samarali faoliyat tartibini joriy etishda tobora hal qiluvchi ahamiyat kasb etib borayotganini hozirgi kunda yurtimizda va xorijdagi nufuzli ekspert va tahlilchilar, jahon siyosat maydonida katta o'rin tutadigan atokli davlat va siyosat arboblari keng e'tirof etishmokka. Hozirgi vaqtda davlat va jamiyat boshqaruvining barcha bosqichlarida tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom, qabul qilinayotgan har bir qonun, farmon va

qaror, joriy etilayotgan yangilikka ongli munosabat birinchi o'rish a chiqib, ishchanlik muhiti keng qaror topib borayotganiga barchamiz guvoh bo'lmoqdamiz.

Har bir sohada davlat tomonidan belgilab berilgan aniq va samarali tizim va sgandartlar asosida ish tutish, masalan, iqtisodiyot sohasini oladigan bo'lsak, nafakat mahsulotlar sifatini, balki shu mahsulotlarni ishlab chiqaradigan odamlarda kasbiy rivojlanish uzluksizligi, ularda o'z shaxsiy mas'uliyatni doimo chuqur his etib yashashni ham ta'minlaydi, bu esa faoliyatda barqarorlik, izchillik va sifat omillariga rioya etishni zaruratga aylantiradi.

Harakatlar strategiyasi odamlarni ochiqlik, oshkoralik, shaffoflik muhitida yashash va ishlashga da'vat etmoqda. Har bir soha faoliyati ulkan ta'sir kuchiga ega bo'lgan, fuqarolik jamiyatining ajralmas bir qismi bo'lgan jamoatchilik nazorati ostida rivojlanishi zarurligini kun tartibiga qo'ymoqda. Bunday muhitda insonning davlat, jamiyat va o'zi oldida mas'uliyatni to'la his etib yashashi, so'zi bilan ishi bir bo'lishiga rioya etish fazilatlarini asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi. Harakatlar strategiyasi O'zbekistonda hukukiy demokratik asosdagi xalq davlati barpo etish yo'lini har tomonlama asoslab beradigan hujjat hisoblanadi. Albatta, Prezidentimiz SH.Mirziyovning keng ko'lamli taraqqiyot strategiyasi va innovatsion rivojlanishga oid g'oya va olib borayotgan siyosatlari haqida birgina BMI doirasida batafsil ma'lumot berish, uning barcha qirralari, har bir soha va tarmoqdagi amaliy samarasini to'liq tahlil qilish - bularning barchasi uzoq va davomli kuzatish va tadqiqotlarni, analitik materiallar, konseptual xulosalarni talab etadi. Mazkur BMIda shu yo'ldagi dastlabki tajriba, amaliy qadam bo'lib, bu boradagi kuzatish va izlanishlarimiz kelgusida davom etadi.

Mamlakatimiz Prezidenti SHavkat Mirziyoev davlat rahbari sifatidagi dastlabki nutq va ma'ruzalar pdayok "Xalq davlat idoralariga zmas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak", "Xalq boy bo'lea, davlat ham boy va qudratli bo'ladi" degan g'oyalarni o'rtaga tashladi. Bu goyalar mamlakatimiz konstitutsiyasida belgilab ko'yilgan "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir mapbapdir" degan qoidaga har tomonlama mos bo'lib, uning maptpqiy rivoji, amaliy natijasini ifoda etadi. YA'ni, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai

bo'lsa, bu hokimiyatni amalga oshiradigan davlat idoralari avvalo kimga xizmat qilishi kerak? Albatta, birinchi navbatda xalqqa xizmat qilishi lozim.

Shu nuqtai nazardan karaganda, davlatimiz rahbariing yuqorida zikr etilgan goyalari ham man-tiqiy jihatdan to'liq konstitutsiyaviy mazmuni va mohiyatga ega bo'lib, ular Uzbekistonda barpo etilgan davlat va jamiyat mazmunini yanada aniklashtiradi. Ya'ni, biz barpo etayotgan huquqiy demokratik davlatning birinchi o'ringa turadigan qadriyatlar adolat, hukuk, demokratiya va xalq manfaatidir. Chunki xalqning xohishi-irodasi huquq va qonunlarni belgilaydi. Xalqning erkin, tinch, ozod va farovon

yashashi, shu goyalarni himoya qilib, mustahkamlab, o'zaro tenglik asosida oldinga intilishi - demokratiyadir.

Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunda mamlakatimizda mazmuni yangi davlat, yangi jamiyat tarkibi topayotgan ekan, unga mos yangi qadriyat va munosabatlar tizimi shakllanishi ham tabiiydir. Hozirgi vaqtda qabul qilinayotgan qonunlar, farmon va qarorlar ana shu ulkan o'zgarishlarga yangi turtki va yo'nalish bermoqda.

Ijtimoiy-siyosiy hayotimizga yangi iboralar, xususan, "xalq bilan muloqot", "elektron hukumat", "xalq qabulxonalar", "virtual qabulxona", "Prezident nortali", "tanqidiy tahlil", "qat'iy tartib-intizom", "adolat qo'rg'oni", "adolat va ma'naviyat", "arzon uylar", "texnologiyalar", "o'z bolangni o'zing asra", "parlament nazorati", "yo'l xaritasi", "kafolatlangan xavfsizlik", "kitobxonlik ko'nikmasi", "profilaktika" va boshqa so'zlar kirib keldi hamda hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi.

Biz bugun ajdodlarimiz ming-ming yillardan beri orzu qilgan, ammo amalga oshira olmagan, adolat, tinchlik, obodlik, farovonlik kabi qadriyatlar mujassami bo'lgan chinakam xalq davlatini barpo etishga kirishdik. Biz nazarda tutayotgan davlat yuqorida ta'kidlangani kabi, "huquqiy demokratik davlat" tushunchasiga to'la hamohangdir.

O'zbekistonda 2016 yil 4 dekabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovidan keyin xalq davlatining mustahkam poydevorini qurish,

demo- kratik imkoniyatlarni kengaytirish, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining mustaqil hokimiyat sifatida faoliyat olib borishi bo'yicha asosiy talabdan

kelib chiqadigan bosh tamoyil - xalqqa xizmat qilish va uning oldida xisob berish masalasi kun tartibiga ko' - yildi. Agar ana shu tamoyilga amal kilinmasa, xar qan- day hokimiyat faqat byurokratik tuzilmadan iborat bo'lib qolishi haqli ravishda ta'kidlab kelinmoqda. Haqiqatan ham, xalqqa yaqinlashish, uning ichiga kirib, eng dolzarb muammolarini hal etish, elu yurt dardu tashvishlari bi- lan yashash har qanday hokimiyatning borligini bildiradi. CHunki u shu tariqa hokimiyatning birdan-bir manbai bo'lgan xalq tomonidan e'tirof etiladi, qo'llab- quvvatlanadi.

Bugungi kunda Prezidentimiz gomonidan "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" degan ezgu va hayotbaxsh shior asosida olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar tufayli har bir kunimiz inson manfaatlarini ta'minlash, fuqarolar haq-huquqlarini kafolatli himoya etish, odamlarni rozi, baxtli, saodatli qilishga qaratilgan yangi, qudratli o'zgarishlar ruhida kechmoqda. O'zbekiston jamiyati sifat jihatidan mutlaqo yangi davrga qadam qo'ymoqda.

Harakatlar strategiyasining ilmiy-nazariy asoslari quyidagilardan iborat:

1. Harakatlar sstrategiyasi xalqchillik, insonparvarlik, bag'rikenglik va ezgulik g'oyalariiga tayanadi. Ijti- moiyy, eiyosiy va iqtisodiy jarayonlarni baholash va ular- ga yondashishda milliy va umuminsoniy qadriya glar uygun- liginish ustuvor ahamiyagga ega ekani haqidagi naeariyaga asoslanadi.

Ma'lumki, dunyoda azaldan ikki omil kurashi, ya'ni **kuchni hurmag qilish madaniyati** hamda **mehrni, yaxshi- likni hurmat qilish madaniyati** o'rtasida tortishuv da- vom etib keladi.

2. Kuchni hurmat qiladigan madaniyag nazariyogchilari "**maqsadga erishish uchun har qanday vositadan foy- dalanish mumkin, chunki natija vosigani oqlaydi**" degan tamoyil asosida ish tutsa, mehrni hurmat qilish madaniyati tarafdorlari esa **nagijaga faqat to'grilik, haq-haqiqat va**

haqqoniylik orqali erishishni galab etadi. O‘zbekiston tazyiq o‘tkazuvchi kuchni, zo‘ravonlikni emas, o‘zaro hurmat, mehr va do‘stlikni hurmat qiladigan, qadrlaydigan mamlakatdir. Harakatlar strategiyasining asosiy nazariy asosi do‘stlik, tinchlik va hamkorlikni, qo‘shni davlatlar bilan raqobatga kirishish emas, balki yaqin do‘st va hamkor bo‘lib, umumiy muammolarni birgalikda samarali hal etishni tashqi siyosatning usguvor yo‘nalishi egib belgilanganida namoyon bo‘ladi.

3. Tarixni yaratuvchi kuch alohida aholi qatlami, ma'lum bir partiya yoki atoqli arboblardan alohida shaxslar emas, balki xalq ekani Harakatlar strategiyasi uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Tarix xalq va uning faol, fidoiy vakillarining mehnati, sa'y-harakatlari, ularning shu yo'lga baxshida umri natijasida yaratiladi. SHu boisdan ham Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, jadid bobolarimiz, F.Xo'jaev, A.Ikromov, SH.Rashidov, I.Karimov singari yurtimiz mustakilligi va ravnaki uchun kurashgan tarixiy shaxslar hamda mustakillikni ko'lga kiritish va uni mustahkamlash yo'lidagi o'zini ayamadan mehnat qilgan minglab zahmatkash insonlar, ishlab chiqarish sohasi xodimlari, olimlar, yozuvchilar, raxbarlarning mehnatiga muposib hurmat va e'zoz ko'rsatilmokda.

4. Harakatlarning strategiyasi hayotga kagiy ishonch va pozitiv qarash nazariyasini ham takozo etadi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Richard Vaysman va boshkalar o'z asarlarida kelajakka yaxshilik nazari bilan qarash, hayotga shukronalik bilan yondashuv barqaror ijtimoiy tarakkiyotni ta'minlashga xizmat qilishini, odamlarning baxtli hayogini yuzaga keltirishi, ta'minlashi va kafolatlashini nazariy asoslab berishgan va ana shunday dorilamon zamon kelishini orzu qilishgan.

5. Harakatlar strategiyasi mantiqan puxta asoslangan hujjat sifatida hayotga pragmatik yondashuv nazariyasiga tayanadi. Pragmatik yondashuv ijtimoiy-iktisodiy jarayonlarni anik ijtimoiy manfaat va foidali ko'zlab, oqilona va natijadorlik tamoyillari peyvida boshqarishning amaliyotga joriy etilishida namoyon bo'ladi.

6. Ma'rifatning yaratuvchanlik kuchini har bir soha, kasb hamda shaxslar faoliyatida ro'yobga chiqarish amaliyoti va nazariyasi Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlarida asoslandi va hayotning deyarli barcha jab-halariga keng joriy etilmoqda va bu nazariya o'zining real samarasini bermoqda.

7. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga preventiv yondashuv nazariyasi bugungi kunda boshqaruv jarayonida real amal qila boshladi. Bunday yondashuv yuz berishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarning oldini olishning maqbul yo'li sifatida tinchlikni saqlash, aholi salomatligini muhofaza qilish, farzandlar garbiyasida, ularning qalbi va ongini turli zararli ta'sirlardan asrashda hushyor va ogoh bo'lish sohalarida profilaktik yondashuv sifatida namoyon bo'lmoqda.

8. Barcha ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni adolat va faqat xalq manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirish nazariyasi Harakatlar strategiyasida ilk bor davlatning ustuvor va davomli, ochiq siyosati sifatida amal qila boshladi. Adolat gamoyili davlat va jamiyatning barcha sohalarida ustuvor ijtimoiy-ma'naviy asos va harakatlantiruvchi kuch sifatida tobora ko'proq ko'zga tashlanmoqda.

9. Davlat manfaatlariga nisbatan xalq va inson manfaatlarining ustuvor ekani bilan bog'liq nazariyaning "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" davlat dasturining mohiyatini ifoda etadigan "Inson manfaatlarini har narsadan ulug'" degan g'oya asosida amalda namoyon bo'layotgani.

10. Davlat va jamiyat boshqaruvida kompromiss emas, ya'ni yon bosish balki konsensus, ya'ni kelishish nazariyasiga tayanilmoqda. Ijtimoiy munosabatlarda konsensus, ya'ni hamjihatlik, yakdillik nazariyasi odamlarning ko'tarinki ruhiyatini ta'minlaydigan ijtimoiy-ma'naviy muhitni barcha oila, mahalla, korxonalar va tashkilotlarda shakllantirish talabi sifatida maydonga chikmokda va bu talab keng ko'lamli ijtimoiy harakatga aylanmokda.

11. Harakatlar strategiyasini amalga oshirish faqat navqiron avlod kuchiga emas, balki o'rta hamda katta avlod kuchi va salohiyatiga babbarobar tayanish, avlodlararo yakdillikni ta'minlashni takozo etadi. Aholi turli qatlamlari, xususan, katta avlod vakillari va yoshlar o'rtasida ma'naviyat, odob-axloq, ijtimoiy ideallar talqini, Vatanimiz taqdiri va

istiqboli masalalarida o'zaro tushunish, avlodlararo vorisiylik munosabatlarining amal qilishi nazariyasiga alohida e'gibor karatilmogsza.

12. Ijtimoiy jarasnlarni o'zaro hamkorlik asosida maqsadli optimallashtirish, ya'ni sinergetik yondashuv nazariyasi keng ko'llanmokda. Sipergetikani hamma soha- ga nisbatan keng qo'llash amaliyoti yo'lga ko'yilmoqda. Masalan, jamiyatda sinergetika o'zini o'zi egn' makbul tashkil etish imkoniyati sifatida turli muassasa va sohalararo hamkorlik tarzida ham amal kilmoqda.

13. Harakatlar strategiyasining eng muhim jihatlarp- dan biri shuki, undagi besh asoeiy ustuvor yo'nalippshsh hech biriga alohida nazar, ayricha ehtirom bilap qaral- maydi. Avval ikgisodiy jihatdan rivojlanib olaylik. hukukiy masalalarni keyin ko'ramiz, qabilidagp pomuta- nosiblikka aslo o'rin yo'q bu hujjatda. Har bepgga yo'na- lish o'zaro uyg'un va hamohang tarzda, bir-biripi qo'llab-quvvatlagan holda rivojlanadi.

Ma'lumki, kariyb 130 yil davom etgan istibdod davrida xalkimizning g'ururi, sha'ni, qadriyatlarini beayov paymol etildi, xalqimiz tarixiy xotirasidan judo qilinib, sal bo'lmasa, o'zini o'zi tanimaydigan holga keltirildi. Odamlarning kindik koni to'kilgan yurtsha bo'lgan muhabbati, sadoqati va e'tiqodi ta'qib qilindi. SHu boisdan ham el-ulus o'rtasidagi ahillik, yakdillikka putur etdi, mehr-oqibat, ajdodlari o'rtasidagi hurmat va savomiylik kabi tushunchalar bizdan yiroqlashdi.

Sobiq mustabid tuzumda yalpi qo'rquv hissi kuchaytirildi. Qo'rkuv hissi esa ona Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, sadokat singari ezgu qadriyatlarni, unga e'tikod va sadokatni zaiflashtprdi, odamlar o'rtasida xudbinlik, lokaydlik va jaholatning kuchayishiga olib keldi. SHuningdek, yangilikka iitilish, boshqalardan o'rganish va o'z bilganini boshqalarga o'rgatish hissiyotini susaytirdi. Ustiga-ustak, bozor iqtisodiyotiing shafkatsiz muhiti ham kishilar o'rtasida ochko'zlik, molparastlik, moddiy to'kinlikni har kanday ma'naviy tushunchalardan ustun qo'yiish, boylikka qarab munosabatda bo'lish kabi illatlar ildiz otishiga olib keldi.

Harakatlar strategiyasi nafaqat iqtisodiy jabhalarni tizimli tartibga tushirish, yangilash va rivojlantirish, balki turli siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy omillar ta'sirida jiddiy ziyon ko'rgan ma'naviy dunyomizni ham tubdan yangilash va yuksaltirishni nazarda tutadi.

Ayonki, XX asr oxirida sobiq sho'rolar tuzumining emirilishi va uning o'rnida yangi mustaqil davlatlarning dunyoga kelishi va har bir davlatning o'ziga xos an'analari, turmush tarzi, siyosiy va ijtimoiy yo'nalishi ilgari tajribada bo'lmagan turli iqtisodiy-ijtimoiy manzaralarni yuzaga keltirdi. Buni O'zbekiston misolida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bozor iqtisodiyotining o'zgaruvchan tabiati, shuningdek, puxta o'ylab ko'rilmadan joriy etilgan ba'zi bir loyihalar mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jiddiy ta'sir o'tkazdi. Ayniqsa, respublikamizning turli viloyat va tumanlaridagi sanoat korxonalarini, madaniyat, ta'lim va xizmat ko'rsatish muassasalari faoliyatida achinarli holatlar yuzaga keldi. Ko'plab ishlab chiqarish ob'ektlari o'z faoliyatini to'xtatdi. Minglab ishchilar, mutaxassislar o'z kasbi, turmush tarzi, yashash joylarini o'zgartirishga majbur bo'ldi.

Harakatlar strategiyasida hududlarni bosqichma- bosqich rivojlantirish, har bir shahar va tumanni puxta o'ylangan reja va loyihalar asosida barqaror taraqqiy ettirish, faoliyat yuritmayotgan sanoat korxonalariga investitsiyalar kiritib, ularga qaytadan jon bag'ishlash, ishsizlikni kamaytirish, yalpi bandlikni ta'minlash ishlarini amalga oshirishni dolzarb vazifa sifatida belgilandi.

Respublikamizda qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan islohotlar natijasida avval kolxoz va sovxozlar, keyinchalik esa shirkat xo'jaliklarining tugatilishi va ularning o'rniga zamonaviy fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi muhim tarixiy voqea bo'ldi.

Mamlakatimiz aholisining 60 foizi yashaydigan qishloq aholisi hayotida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi, istiqbolli fermer xo'jaliklari tashkil etildi. Natijada ilgari ming kishi bajaradigan ishni 50 - 100 kishi bema'lol bajaradigan bo'ldi. Atigi 8 - 10 kishi bo'lib ish yuritadigan fermer xo'jaliklari ilgari olinadigan hosildan bir necha bor ko'proq mahsulot tayyorlay boshladi. Avval samarasiz

faoliyat yuritib kelgan sobiq shirkat ishchilari esa dehqonchilik, yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan band bo'lishga yoki tomorqa erlarida mehnat qilib, o'z tirikchiliklarini o'tkazishlari kerak edi. Ular uchun ish o'rinlari yaratish masalasi bilan jiddiy shug'ullanish kerak edi. Afsuski, bu borada amaliy ish o'rniga raportbozlik avj oldi. Ijtimoiy masalalar vaqtida hal qilinmadi. Natijada mehnatga yaroqli qishloq mehnatkashlari orasidan ko'pchilik stixiyali tarzda uzoq va yaqin xorij davlatlariga ish izlab ketishga majbur bo'ldi. Buning oqibatida ming-minglab vatandoshlarimiz tili, dini, ma'naviyati va siyosati o'zgacha bo'lgan muhit ta'siriga, qiyin holatlarga tushib qoldi.

Harakatlar strategiyasi ana shunday og'ir ijtimoiy asoratlarni bartaraf etish, qishloq hayotini izga tushirish, bandlikni ta'minlash, chet elga ish izlab ketgan yoshlarni qaytarish va ular uchun munosib hayot va faoliyat tarzini yaratish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni nazarda tutishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ochig'ini tan olishimiz kerak, respublikamizda aholi va ijtimoiy tarmoqlarni tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlash holati ham o'ta qoniqarsiz ahvolga tushib qolgan edi. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining qirq foizi istiqomat qiladigan yirik shaharlargina tabiiy gaz bilan ta'minlangan, xolos. Biroq, qishloq joylarga bu turdagi yoqilg'ini etkazib berish jiddiy muammoga aylandi. O'tgan asrning 70-yillarida yaratilgan elektr tarmoqlari ham yillar mobaynida eskirib, yaroqsiz holga kelib qoldi.

Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev saylovoldi uchrashuvlarida bu haqda alohida to'xtalib, "respublikamizda elektr uzatish tizimining 65 foizi eskirdi, bu tizimni tubdan isloh etish va tamoman yangilash vaqti keldi"¹, deb ta'kidlagani albatta bejiz emas.

Aholini uy-joy bilan ta'minlash masalasi ham jiddiy muammoga aylangani haqida ham bugungi kunda ko'p gapirilmoqda. Qishloqda yashovchi har uch xonadondan ikkitasida uch-to'rt oila istiqomat qiladi, ularning har birini uy-joy bilan ta'minlash masalasi o'z echimini topganicha

¹ Шавкат Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураимиз. Т.: "Ўзбекистон", 2017. 74-бет

yo‘q. SHuning uchun ham davlatimiz rahbari tomonidan yangilangan ko‘rinishdagi, namunaviy arzon uy-joylar qurish dasturi ishlab chiqildi va izchil amalga oshirilmoqda.

Harakatlar strategiyasi aholini elektr, tabiiy gaz, toza ichimlik suvi kabi eng zarur ne‘matlar bilan ta‘minlashni, shuningdek, arzon uy-joylar qurishni, odamlar uchun munosib hayot tarzini yuzaga keltirishni aniq rejalashtirib, uni real vaqt rejimida amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqqani bilan ham ahamiyatlidir. Harakatlar stragegiyasining to‘liq amalga oshirilishi natijasida har bir oila uy-joy, elektr energiyasi, tabiiy gaz va toza ichimlik suvi bilan ta‘minlanadi.

Hozirgi davrdagi jadal taraqqiyot tendensiyalari mamlakatimizni sanoat asosida rivojlantirishda shaxs salohiyati, ma‘naviy-intellektual omil rivojiga ustuvor ahamiyat qaratishni dolzarb masalaga aylantirdi. Vatanimizning barqaror taraqqiyoti uchun mavjud intellektual salohiyatni samarali ishga solish, mutaxassislarning o‘z faoliyatiga ongli yondashuvini shakllantirish, ularning shaxsiy mas‘uliyat va tashabbuskorlik fazilatlarini kuchaytirish katta ahamiyatga egadir. Insonning shaxsiy mas‘uliyati, tashabbuskorlik hamda fidoiylik fazilatlari esa Vatanni chin dildan sevishdan, vatanparvarlikdan kuch oladi. SHu boisdan Prezidentimiz SH.Mirtoyevning “Har qanday davlat siyosatining asosini vatanparvarlik tarbiyasi tashkil etadi” degan so‘zlari zamirida chuqur ma‘nolar mujassamdir. Vatanparvarlikning harakatlantiruvchi kuchi esa odamlarning manaviy dunyosi, intellektual salohiyati, kitob mutolaasi ularning hayotida qanchalik muhim o‘ri tutishi bilan o‘lchanadi. SHuning uchun ham Prezidentimiz kitob mutolaasini rivojlantirish masalasini davlat siyosati darajasiga ko‘tardi, ulug‘ ajdodlarimizning ezgu g‘oyalari, o‘g‘itlari, bitiklari asosida ta‘lim va tarbiya sohasidagi tub islohotlarni yuksak bosqichga olib chiqish, yurt kelajagi uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga kodir bo‘lgan yangi avlodni voyaga etkazish bo‘yicha ishlarni izchil davom ettirish lozimligini doimo uqtirib kelinmokda.

Harakatlar strategiyasi davlat va jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan vatanparvarlik omiliga mustahkam tayangan holda ish olib borishga da'vaga etadi. Vatan sevish - o'z oilasi, mahallasi, kasbi, hududi va O'zbekistonni qadrlashda namoyon bo'lishiga alohida e'tibor qaratadi.

Harakatlar strategiyasiga kuch bag'ishlovchi yana bir omil - bu inson kapitali. Har bir odamning o'ziga xos bilimi, kasb salohiyati, iqtidori, salomatligi, maqsad va intilishlari, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini bo'lib, ular ijtimoiy taraqqiyot ko'lami va xarakterini belgilashda favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi. Inson ichki imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish, bir tomondan, mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmini ko'paytirishda muhim rol o'ynasa, ikkinchi tomondan, shaxsning hayotda o'z ongli turmushini tashkil etishda, o'z kelajagini Vatan taraqqiyoti bilan bog'lashda katta ahamiyat kasb etadi.

Harakatlar strategiyasi nafaqat tashqi investitsion siyosatni faollashtirish, balki inson ichki imkoniyatlarini yanada to'laroq ro'yobga chiqarish ishlariga alohida e'tibor qaratadi. "Bu siyosatning asosiy maqsadi shundan iboratki, biz har bir fuqaroga o'zining kuch va imkoniyati, qobiliyat va salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun keng sharoit va imkoniyat yaratib berishimiz zarur", deb ta'kidlaydi Prezidentimiz.

Vatan taraqqiyotini barqaror ta'minlovchi yana bir omil - bu odamlarning o'zaro munosabatlari tizimini yanada insoniylashtirishdir. Insoniylashtirish munosabatlar negizida esa barcha jabhalarda to'g'rilikni, haqqo'ylik, sidqni mustahkam joriy etish muammosi mujassamdir. Atoqli muhaddis Hakim Termiziy sidqning haqiqat bilan bir narsa ekanini ta'kidlaydi va "Sidqning boshlanishi - to'g'rilikdir"¹, deb aytadi, to'g'rilikning asli esa Haq taolodan bandasiga bildirilgan va berilgan narsasida chiroyli ixtiyor qilish ekaniga e'tibor qaratadi.

Harakatlar strategiyasi O'zbekistonda ahil jamiyat, do'stlik va muhabbat muhitini barpo etishni nazarda tutadi. Odamlararo ichki bog'liqlik, mehr rishtalari mustahkam bog'lansa, halollik va ayniqsa, har bir ishda to'g'rilikni bosh qadriyat

¹ Ҳақим Термизий. "Маърифат-ул-асрор", Т.: "Мовароуннаҳр", 2017 йил, 55-бет.

deb bilish, uni iymon darajasida e'zozlash har bir odamning e'tiqodiga, hayot maslagiga aylanadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O'zbekistonning munosib o'rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bosib o'tilgan yo'l va orttirilgan tajribani xolisona baholashdan, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni tahlil qilishdan hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda, oldimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash vazifasi turgan edi.

Mazkur vazifani amalga oshirish yo'lida aholining keng qatlamlari, jamoatchilik va ishbilarmon doiralar vakillari, davlat organlarining rahbarlari va mutaxassislari bilan amaliy suhbat hamda muhokamalar olib borildi, shuningdek amaldagi qonun hujjatlari, milliy va xalqaro tashkilotlarning axborot-tahliliy materiallari, ma'ruzalari, tavsiyalari va sharhlari o'rganildi, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi.

Kelib tushgan takliflarni jamlash, chuqur o'rganish hamda umumlashtirish asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni loyihasi ishlab chiqilib, u bilan:

2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi (keyingi o'rinlarda — Harakatlar strategiyasi);

Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi (keyingi o'rinlarda — Davlat dasturi) tasdiqlandi.

Loyihalarni tayyorlash davomida aholining keng qatlamlari orasida qizg'in muhokamalar olib borildi. Loyihalar muhokama uchun turli axborot maydonlariga

joylashtirildi, ularning natijasida ko‘plab taklif va mulohazalar kelib tushdi. Fuqarolar siyosiy-huquqiy borada yuksak faollik ko‘rsatib, olib borilayotgan islohotlarga alohida qiziqish va daxldorlikni namoyon qildilar.

Xususan, loyihalarning «Qonun hujjatlari ta’sirini baholash tizimi» portalida yo‘lga qo‘yilgan jamoatchilik muhokamasi natijalari bo‘yicha 1 310 ta taklif va mulohaza kelib tushib, ular asosida Davlat dasturining 41 ta bandi qayta ko‘rib chiqildi.

SHu bilan birga, 2017 yil 23 — 27 yanvar kunlari Toshkent shahrida media-haftalik va xalqaro davra suhbatlari tashkil etilib, ularda 1 300 dan ortiq mutaxassis va ekspert, jamoatchilikning, ommaviy axborot vositalarining, diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlarning, shuningdek O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan yirik xorijiy investorlarning vakillari ishtirok etishdi.

Harakatlar strategiyasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev tomonidan saylovoldi jarayoni, jamoatchilik, ishbilarmon doiralar vakillari hamda davlat organlari bilan uchrashuvlar chog‘ida bildirilgan mamlakatni ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-gumanitar rivojlantirishning konseptual masalalari kiritildi.

Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

Xususan, mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo‘nalishi belgilangan:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Mazkur yo‘nalishlarning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo‘limlardan iborat.

Harakatlar strategiyasini besh bosqichda amalga oshirish nazarda tutilmoqda, bunda yillarga beriladigan nomlarga muvofiq har yili uni amalga oshirish bo‘yicha Davlat dasturi tasdiqlanadi.

Davlat dasturining «Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish» deb nomlangan birinchi yo‘nalishini amalga oshirishda davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini kuchaytirish, qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini tubdan yaxshilash, davlatning hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish nazarda tutilgan.

Davlat boshqaruvini takomillashtirish, eng avvalo davlat xizmatini isloh qilish, iqtisodiyotda davlat boshqaruvini kamaytirish, davlat va xususiy sektorlarning o‘zaro foydali hamkorligining zamonaviy shakllarini, «Elektron hukumat» tizimini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Xalq bilan samarali muloqotni ta‘minlash Davlat dasturining eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri bo‘ldi. SHu munosabat bilan jamoatchilik nazoratini takomillashtirish, nodavlat notijorat tashkilotlarini, ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish, shuningdek mahallaning jamiyat hayotidagi rolini kuchaytirish nazarda tutilmoqda.

Davlat dasturining ikkinchi yo‘nalishi qonun ustuvorligini va sudning chinakam mustaqilligini ta‘minlash chora-tadbirlarini nazarda tutadi. Jumladan, qarorlar qabul qilishda sudlar mustaqilligini ta‘minlashi kerak bo‘lgan Oliy sud kengashini tuzish, professional sudyalar korpusini shakllantirish, sudyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Ma‘muriy sudlarni, xo‘jalik sudlari tizimida mintaqaviy apellyasiya sudlarini tuzish, sudya yordamchisi lavozimini ta‘sis etish orqali sudlarni kelgusida ixtisoslashtirish va ularning devonini mustahkamlash nazarda tutilmoqda.

Sansalorlikka va ishlarning ko‘rib chiqilishi sudlar tomonidan asossiz cho‘zib yuborilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida protsessual qonun hujjatlarini takomillashtirish, quyi instansiya sudlarining kamchiliklarini mustaqil bartaraf etish va uzil-kesil qaror qabul qilish yuzasidan yuqori sud instansiyalarining vakolatlarini kengaytirish rejalashtirilmoqda.

Ushbu yo‘nalish doirasida barcha huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, davlat hamda xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining xalq bilan bevosita muloqotini yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlarini ro‘yobga chiqarish, aholi ularga erkin murojaat eta olishini ta‘minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda erkinliklari buzilganligi to‘g‘risidagi murojaatlarning, xabarlarining o‘z vaqtida olinishini ta‘minlash nazarda tutilmoqda.

Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimiga, jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat tartibini saqlash bo‘yicha ichki ishlar organlarining faoliyatini tubdan takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratiladi.

SHuningdek ushbu yo‘nalish 2018 — 2021 yillarda jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqishni, sud, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari xodimlarini o‘qitish, tanlash va joy-joyiga qo‘yish tizimini takomillashtirishni, murojaatlarni muntazam tahlil qilishni hamda vaqti-vaqti bilan uning natijalarini e‘lon qilib borishni, advokaturani rivojlantirishni, notariat tizimini va FHDYO organlarini isloh qilishni ham o‘z ichiga oladi.

«Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish» deb nomlangan uchinchi yo‘nalishda ko‘rsatilgan chora-tadbirlarni ro‘yobga chiqarish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta‘minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksportga mo‘ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy investorlar uchun investitsiyaviy

jozibadorlikni oshirish, soliq ma'murchiligini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, shuningdek turizm industriyasini jadal rivojlantirish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek ushbu yo'nalish xususiy mulkni, moliya bozorini himoya qilish, qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash, zargarlik sohasini rivojlantirish, ayrim milliy korxonalarining aksiyalarini (IPO) nufuzli xorijiy fond birjalariga dastlabki tarzda joylashtirishga tayyorgarlik ko'rish chora-tadbirlarini ham o'z ichiga oladi.

2017 — 2021 yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSH dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro'yobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog'i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi.

«Ijtimoiy sohani rivojlantirish» deb nomlangan to'rtinchi yo'nalish aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiya, gaz bilan ta'minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Xususan, hududlarni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha qariyb 25 mingta investitsiya loyihasini ro'yobga chiqarish hisobiga 256,4 ming ish o'rni tashkil etish orqali aholini ish bilan ta'minlash dasturlarini to'liq ijro etish nazarda tutilgan. Ishsizlik darajasi eng yuqori bo'lgan mintaqalarda 46,8 ming yangi ish o'rni tashkil etish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun ta'lim muassasalarining 10 ming nafar bitiruvchisiga kreditlar ajratish rejalashtirilmoqda.

Katta yoshli avlodni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy nafaqalar berish tartibini takomillashtirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish chora-tadbirlari kiritilgan. Jumladan, 78 ta tuman tibbiyot birlashmasini, 7 ta shahar va 2 ta viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazini qayta qurish, tez tibbiy yordam xizmatini 1200 ta maxsus avtotransport bilan ta'minlash rejalashtirilmoqda.

Qishloq joylarda 15 mingta arzon uy-joy, 415 kilometrlik suv ta'minoti quvurlari, 316 kilometrlik gaz ta'minoti quvurlari va 291 kilometrlik ichki yo'llar qurish rejalashtirilgan. Aholiga transport xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida 86 ta yangi avtobus yo'nalishini joriy etish va 537 ta zamonaviy avtobus xarid qilish nazarda tutilmoqda.

«Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish» deb nomlangan beshinchi yo'nalish doirasida respublikaning konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish, kiberxavfsizlik sohasida axborot, normativ-huquqiy asoslar tizimini takomillashtirish, aholini favqulodda vaziyatlardan xabardor qilish tizimini tashkil etish va rivojlantirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, shuningdek Millatlararo munosabatlar sohasidagi siyosatning ustuvor yo'nalishlari konsepsiyasini hamda Diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini ishlab chiqish nazarda tutilmoqda.

SHu bilan birga, xorijiy hamkorlar bilan siyosiy-diplomatik sohadagi hamkorlikni rivojlantirishga doir «Yo'l xaritalari»ni ishlab chiqish, O'zbekistonning xorijiy hamkorlar bilan 2017 yilga mo'ljallangan savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, texnologik va moliyaviy-texnik hamkorligini tubdan rivojlantirish va kengaytirish rejalashtirilmoqda.

Davlat dasturining yuqorida qayd etilgan barcha chora-tadbirlarini amalga oshirishga 37,7 trillion so'm va 8,3 milliard AQSH dollari yo'naltiriladi.

Kelgusi besh yilda mamlakatni rivojlantirishning strategik va ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida Farmon asosida, O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti boshchiligida Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Milliy komissiya tuzilmoqda.

Davlat dasturiga kiritilgan tadbirlar to'liq, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini nazorat qilish Harakatlar strategiyasi beshta yo'nalishining har biri bo'yicha tuzilgan komissiyalar zimmasiga yuklatilgan.

Ushbu komissiyalar zimmasiga nafaqat yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish, balki 2018 — 2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tegishli yillik davlat dasturlari loyihalarini tayyorlash ham yuklatilmoqda.

Harakatlar strategiyasining amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasining mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, qonun ustuvorligini, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlat chegaralarining daxlsizligini, jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash yo'lidagi shaxdam harakatlariga yangi kuch bag'ishlaydi.

Harakatlar strategiyasining to'la bajarilishi qanday natijalarga olib keladi?

1. Huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etiladi, aholi turmush darajasi va hayot sifati oshadi.

2. Mamlakatimizda muvaffaqiyatsiz va qoloq ishlovchi sohalar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar yoki rahbar va xodimlar bo'lmaydi. Hamma tashkilot va muassasalarda xalqaro qabul qilingan standartlar asosida hamda o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda ishlash tarzi to'la kuch bilan amal qila boshlaydi.

3. Tadbirkorlik faoliyati odamlar orzusidagi ishdan real hayot tarziga, yalpi ijgimoiy harakatga aylanadi.

4. Soliq to'lovchilarning umumiy miqdori oshadi, demakki, ish bilan band aholi hissasi keskin ko'payadi.

5. Mamlakatimizda sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi hajmi oshadi, davlatning eksport salohiyati keskin ko'tariladi.

6. Davlat xalqqa to'laqonli xizmat qila boshlaydi, bu jarayon nodavlat tashkilotlar tomonidan jamoatchilik nazoratiga olinadi.

7. Har bir ish, sohaning, u bank, fermerlik, tadbirkorlik bo'ladimi, ma'rifat asosida to'laqonli kuch bilan ishlay boshlaydi. Bank ma'rifati, fermerlik, tadbirkorlik ma'rifati singari iboralar taomilga kiradi va ularning holatiga jamoatchilik tomonidan baho berib boriladi.

8. Har bir soha o'zicha emas, balki o'zaro hamjihatlikda davlatning ustuvor taraqqiyot yo'nalishlarini rivojlantirishga hissa qo'shgan holda ishlay boshlaydi.

9. 2021 yilga kelib yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmida industrial mahsulotlar, intellektual-madaniy mulk va xizmatlarning hissasi keskin oshadi.

10. Odamlarda mas'uliyat, tashabbuskorlik, hamjihatlik, mehr-oqibat fazilatlari milliy mentalitetimizning uzviy jihatiga aylanadi.

11. Dunyoda andozasi bo'lmagan yangi demokratik, insonparvar tuzilma xalq davlati shakllanadi va butun jahon mamlakatlari uchun xalqchil, demokratik tartibotlar o'rnatishda namunaviy model sifatida tavsiya etiladi.

12. Bandlikni ta'minlash muammosi umumjamiyat miqyosida hal etiladi, boqimandalik kayfiyatiga qarshi jamoatchilik kurashi avj oladi.

13. Iqtisodiy holati turli darajada bo'lgan aholi qatlamlariga moslab, yangi uy-joy qurilishi keng ko'lamlarda olib boriladi. Uy-joyga ehtiyojmand oilalarning muammolari echiladi.

14. Jamiyatda to'g'rilik, halollik, adolatlilik, mehnatsevarlik, "hamma narsani o'z nomi bilan atash" fazilatlari odamlarning haqiqiy qadriyatlariga aylanadi.

15. Vatanparvarlik omili davlat va jamiyat miqyosida amalga oshirilayotgan ma'naviy siyosatning harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi.

16. Milliy ma'naviy o'zlikka ega bo'lish, madaniy merosni o'zlashtirish uchun kurash yalpi ijtimoiy harakatga aylanadi.

17. Jamiyatda yolg'onchilik, tovlamachilik sotsial miqyosda notipik faktlarga aylanadi. Jamiyat shunday ijtimoiy zararli pozitsiyaga ega shaxslarni o'z muhitidan ajratib qo'yadi. Demak, biz ayrim odamlarni samarali tarbiyalay olishimiz uchun ularni jamiyat o'zidan uzoqlashtirishi haqida ogohlantirishimiz ham lozim.

18. YAxshilik qilib, ma'naviy-ruhiy zavqlanish, bunyodkorlik bilan shug'ullanish, har kuni yaxshilik, savob ish qilay deb ko'chaga chiqish har bir odam uchun uzviy xususiyatga, yalpi ijtimoiy harakatga aylanadi.

19. Loqaydlik, befarqlik holatlarini jamiyat tomonidan jiddiy ijtimoiy illatlar sifatida baholash va bunday holatlarni pozitiv yo'nalishlarga burish, ijtimoiy daxldorlikni kuchaytirish harakati boshlanadi.

20. YOshlarda mehnatga bo'lgan ko'nikmani tarbiyalash, ularga mehnat qilib zavqlana olishni o'rgatishning amaliy mexanizmlari ishlab chiqiladi va yagona milliy siyosat sifatida joriy etiladi.

21. Aholining xarid quvvati oshadi. Odamlarning ehtiyojlari qatorida ijodkorlik, ilm-fan, san'at, adabiyotga bo'lgan intilish kuchayadi.

22. Odamlarning tinchligi, kafolatli xavfsizligini ta'minlash borasidagi amaliy mexanizm to'la kuch bilan ishlay boshlaydi.

23. Bozorlarda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat va sanoat mahsulotlari mo'l-ko'lligi ta'minlanadi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlari arzonlashadi.

24. Millatning xarakteri o'zgaradi. Odamlarning o'z-o'ziga bo'lgan bahosi, boshqa xalqlar qatoridagi nufuzi ortadi, o'z tili, madaniyati, an'alariga sadoqati kuchayadi.

25. Odamlarda o'z davlati, millatiga bo'lgan muhabbati haqiqiy qadriyat sifatida mustahkamlanadi. Vatan uchun fidoiylilik umummilliy xususiyatga aylanadi.

26. Diniy ekstremistik oqimlarga berilish holatlarining oldi olinadi, davlat qonunlari, jamiyat qoidalari, haqiqiy islom ma'rifatining hamkorlikdagi kuchi o'z ta'sirini samarali namoyon eta boshlaydi.¹

Taraqqiyot strategiyasi markazi : O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi bilan 2017 yil 14 fevralda mamlakatimizda keng ko'lamda amalga oshirilayotgan Harakatlar strategiyasi samaradorligini ta'minlash maqsadida

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.Т.: “Ўзбекистон”, 2017. Б.-31-34.

“Tarakkiyot strategiyasi” markazi tashkil etildi. Ushbu markaz nohukumat va notijorat tashkilot bo‘lib, uning faoliyati doirasiga quyidagi yo‘nalish va vazifalar kiradi:

- Harakatlar strategiyasida belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilish jarayonlarini ularning bajarilishi bo‘yicha mas’ul komissiya bilan qamkorlikda qo‘llab-kuvvatlash;

- Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha xalqaro tashkilot va ekspertlar fikrlarini baholash, shuningdek, xalkaro tajribalar, jahon standartlarini o‘rganib borish;

- amalga oshirilayotgan tadbirlarning keng jamoatchilik va ekspertlar ishtirokidagi muhokamasini tashkil etish;

- Harakatlar strategiyasida belgilangan tadbirlarni samarali amalga oshirish bo‘yicha asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

“Taraqqiyot strategiyasi” markazining eng muhim vazifalaridan biri Harakatlar strategiyasida belgilangan eng muhim chora-tadbirlarning bajarilishini tizimli monitoring kilib borish hamda har bir yo‘nalish bo‘yicha guruhlariga asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Markaz 2017 yil 23 fevral kuni Adliya vazirligida davlat ro‘yxatidan o‘tdi va uning takdimot marosimi 2017 yil 1 mart kuni “Zarafshon” konsert zali negizida tashkil etilgan yangi media maydonda bo‘lib o‘tdi.

Harakatlar strategiyasi va “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili” Davlat dasturida belgilangan vazifalarning bajarilishini keng yoritish va tadbirlar bo‘yicha muntazam ravishda jamoatchilik muhokamasini o‘tkazish maqsadida Markaz tomonidan O‘zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi va boshqa etakchi OAV hamda Xalqaro press-klub bilan o‘zaro hamkorlik bitimlari imzolandi.

2017 yilning mart-iyun oylarida Markaz koshida tashkil etilgan maxsus media maydonda o‘ttizdan ortiq brifing, press-konferensiya va tok-shoular tashkil etildi.

Davlat dasturi ijrosi doirasida ishlab chiqiladigan barcha qonunlar va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalari Markaz qoshida dastlabki ekspertlik

muhokamasidan o'tkazilishi amaliyoti joriy etilmoqda. Jumladan, Markazda O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi va ekspertlar ishtirokida "Jamoatchilik nazorati to'g'risida" va "Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari to'g'risida"gi qonun loyihalarining keng muhokamasi o'tkazildi. Tashqi ishlar vazirligi va Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) tomonidan taqdim etilgan qonunlar loyihalari bo'yicha muhokamalarda Markaz vakillari ishtirok etishdi.

SHu bilan birga, Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturida ko'zda tutilgan tadbirlarning amalga oshirilishida Markazning imkoniyatlaridan to'liq, samarali va tizimli foydalanish mexanizmlarini joriy qilish, jumladan, yuqori malakali mutaxassislar bilan taxdiliy va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish maqsadida Markaz huzurida Doimiy faoliyat yurituvchi ishchi maydon tashkil etildi va O'zbekiston Milliy kutubxonasining axborot-kutubxona fondiga va etakchi xorijiy litsenziyaga ega axborot-kutubxona resurslari fondlariga elektron ulangan tizimdan foydalanish yo'lga qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 2017 yil 7 fevralda imzolangan Farmoniga muvofiq uni hayotga joriy etish bo'yicha qonuniy tamoyil va mexanizmlar tasdiqlandi.

Mamlakatimizda Prezidentimiz SHavkat Mirziyoevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil amalga oshirilayotgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasi taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonning amaliy natijalari, belgi va xususiyatlari bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalarida, eng muhimi, xalqimizning ongu tafakkuri, intilish va harakatlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. SHu ma'noda, Harakatlar strategiyasi O'zbekistonni tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan zamon talablari asosida jadal rivojlantirishning ilmiy-nazariy, amaliy-konstruktiv asoslarini belgilab beradigan, taraqqiyotning yangi davri uchun mo'ljallangan muhim dasturilamaldir, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Bu keng ko'lamlı, noyob hujjat davlatimizning barcha

sohalarida yangicha yondashuv va mezonlarni joriy etish, aholining barcha qatlamlari o'rtasida tashabbuskorlik, tadbirkorlik, elu yurtimiz taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyat va daxldorlik tuyg'usini oshirish, aniq tizim asosidagi samarali faoliyat tartibini joriy etishda tobora hal qiluvchi ahamiyat kasb etib borayapti.

Хулоса қилганда, Prezident SHavkat Mirziyoev Harakatlar strategiyasini ishlab chiqib, keyingi ikki yarim yil ichida jamiyatning demokratik qiyofasini, islohotlar sur'atini o'zgartirib, davlat va xalq o'rtasidagi muloqot asosidagi inson manfaatlarini amalga oshirishning jahonda o'xshashi bo'lmagan o'ziga xos tizimini yaratdi. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari olamshumul vazifalar belgilandi va shiddat bilan amalga oshirildi va oshirilmoqda.

II-BOB. O'ZBEKISTONDAGI ISLOHOTLARNING INNOVATSION MUAMMOLARI

2.1. SH.M.Mirziyoevning "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" asarida innovatsion rivojlanish yo'lining dolzarb muammolari va ularning echimiga oid g'oyalarning ifodalanishi

2016 yilning kuzi O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida tarixiy ahamiyatga ega voqealar bilan xarakterlanadi. 2016 yil 2 sentyabrda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov vafot etdi. 2016 yil 8 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati qo'shma majlisining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazifa va vakolatlarini bajarishni vaqtincha yuklash to'g'risida"gi Qarori qabul qilinganidan so'ng O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri SHavkat Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajarishga kirishdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati qo'shma majlisida SH. Mirziyoev "Milliy taraqqiyotimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" nomli nutq so'zladi. SHavkat Mirziyoev o'z nutqida O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimovning zamonaamizning

ulug‘ siyosatchisi, uzoqni ko‘radigan va strategik fikr yuritadigan shaxs, dunyoda va turli mintaqalarda yuz berayotgan o‘ta murakkab voqea-hodisalarning mohiyatini davlatchilik nuqtai nazaridan ko‘ra bilish qobiliyatiga ega bo‘lgan, o‘z yurti va xalqi uchun, har bir vatandoshimizning taqdiri uchun ulkan mas‘uliyat tuyg‘usini chuqur his qiladigan atoqli rahbar sifatida O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyoti davridagi ulkan xizmatlari, bu davrda mamlakatimiz erishilgan yutuq va natijalarni bayon qildi. Jumladan, SH. Mirziyoev ushbu nutqida “Bugun biz xalqimizni ishontirib, baland ovoz bilan aytishimiz zarurki, buyuk ustozimizning siyosiy merosi, ya’ni, u kishi belgilab bergan taraqqiyotimizning asosiy tamoyillari, ustuvor yo‘nalishlar, maqsad va vazifalarni so‘zsiz va to‘liq amalga oshirish biz uchun ham qarz, ham farzdir” deb ta’kidladi.¹ SHu bilan birga mamlakatimizning kelgusi rivoji, xalqimiz farovonligi, uning turmush darajasi va sifatini yuksaltirish Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan “o‘zbek modeli”ning asosi bo‘lmish besh tamoyilni amalga oshirish asosida iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni davom ettirish va uning raqobatbardoshligini ta’minlash masalasiga bog‘liq ekanligini ta’kidladi. Bu boradagi ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida so‘zlagan “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” nomli nutqida mamlakatimiz iqtisodiyotini innovatsion asosda rivojlantirish bo‘yicha quyidagi ustuvor vazifalarga diqqat-e’tiborni qaratishdi.

Birinchiidan, makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va keyingi yillardagi iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini saqlab qolish zarur. Milliy valyutamiz barqarorligini ta’minlash, bank tizimini mustahkamlash, mamlakatimizda va mahalliy darajada byudjet barqarorligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak.

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.Т.: “Ўзбекистон”, 2017. Б.-169-10.

Ikkinchidan, nodir va qimmatbaho metallarni chuqur qayta ishlash, oziq-ovqat va kimyo sanoatini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturlarni amalga oshirishimiz zarur.

Uchinchidan, tashqi bozorlarda raqobat va beqarorlik kuchayib borayotgan sharoitda iqtisodiyotning real tarmoqlari bilan bir qatorda mamlakatimiz hududlarida ham raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish va eksport salohiyatini oshirish alohida ahamiyatga ega.

Ana shu maqsadda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari, shuningdek, fermer xo'jaliklarining eksportda ishtirok etishini yopida rag'atlantirish bo'yicha qo'shimcha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bu iqtisodiy o'sish, tarmoqlar va hududlarni rivojlantirish, aholining mehnat bilan bandligini ta'minlash na moddiy farovonligini oshirishning asosiy lokomotivi bo'lishi kerak.

To'rtinchidan, Islom Abdug'anievich Karimovning xususiy tadbirkorlik va kichik biznes sub'ektlari manfaatlarini mustahkam himoya qilish to'g'risidagi talab va topshiriqlari ijrosimi izchil davom ettirish darkor. Turli byurokratik to'sikdar va asossiz tekshiruvlarni bundan keyin ham qat'iyat bilan cheklash zarur.

Beshinchidan, eng muhim ijtimoiy iqtisodiy vazifa - Oliy Majlis palatalari tomonidan tasdiqlangan Aholining mehnat bilan bandligini oshirish dasturini bajarishdan iborat.

Oltinchidan, xalqaro kommunikatsiya tarmoqlariga ulangan zamonaviy yo'l-transport va muhandislik infratuzilmasini shakllantirish, shuningdek, milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan puxta o'ylangan va ishlab chiqilgan strategiyani amalga oshirishni davom ettiramiz.

Bugungi sharoitda eng ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu sohada qabul qilingan Milliy dasturga muvofiq, telekommunikatsiya texnologiyalarini, aloqa tizimlari va infratuzilmasini yanada rivojlantirishimiz, informatsion tizimlar komplekslari va «Elektron hukumat» axborot bazasini shakllantirishimiz kerak.

Sh.M.Mirziyoevning “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” asarida innovatsion rivojlanish yo‘lining dolzarb muammolari va ularning echimiga oid g‘oyalarni ilgari surdi. Bu asrda Prezidentimiz mamlakatimiz iqtisodiyotini innovatsion asosda rivojlantirish bo‘yicha quyidagi ustuvor vazifalarga diqqat-e’tiborni qaratishdi.

Birinchidan, makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va keyingi yillardagi iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini saqlab qolishyu. Milliy valyutamiz barqarorligini ta’minlash, bank tizimini mustahkamlash, mamlakatimizda va mahalliy darajada byudjet barqarorligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish .

Ikkinchidan, nodir va qimmatbaho metallarni chuqur qayta ishlash, oziq-ovqat va kimyo sanoatini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan dasturlarni amalga oshirish.

Uchinchidan, tashqi bozorlarda raqobat va beqarorlik kuchayib borayotgan sharoitda iqtisodiyotning real tarmoqlari bilan bir qatorda mamlakatimiz hududlarida ham raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish va eksport salohiyatini oshirish alohida ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, Islom Abdug‘anievich Karimovning xususiy tadbirkorlik va kichik biznes sub’ektlari manfaatlarini mustahkam himoya qilish to‘g‘risidagi talab va topshiriqlari ijrosimi izchil davom ettirish darkor. Turli byurokratik to‘sikdar va asossiz tekshiruvlarni bundan keyin ham qat’iyat bilan cheklash zarur.

Beshinchidan, eng muhim ijgimoiy iqtisodiy vazifa - Oliy Majlis palatalari tomonidan tasdiqlangan Aholining mehnat bilan bandligini oshirish dasturini bajarishdan iborat.

Oltinchidan, xalqaro kommunikatsiya tarmoqlariga ulangan zamonaviy yo‘l-transport va muhandislik infratuzilmasini shakllantirish, shuningdek, milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish.

2.2. SH.M.Mirziyoevning 2017 yil 22 dekabrda O‘zbekiston Oliy Majlisi qo‘shma palatalari yig‘ilishidagi Murojaatnomasida innovatsiyalar milliy farovonlikni yaratish omili ekanligining asoslanishi

2017 yil mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida ulkan tarixiy voqealarga nihoyatda boy bo‘ldi. Ana shu muhim hodisalar haqida gap ketganda, hech shubhasiz, boshqa muhim jarayonlar qatorida birinchi navbatda 2017 yil 22 dekabr sanasini ham esga olamiz. Chunki bu kun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev tomonidan milliy davlatchiligimiz tarixida birinchi marta mamlakatimiz parlamenti - Oliy Majlisga Murojaatnoma taqdim etilgan sana sifatida mustaqillik davridagi tariximizga zarhal harflar bilan bitiladi.

Dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar tajribasida keng qo‘llanilib kelinayotgan, amalda o‘zini oqlayotgan bu siyosiy institutning joriy etilishi yurtimizda 2017 yilda yil davomida amalga oshirilgan islohotlarni atroflicha tahlil qilib, kelgusi yil rejalarini har tomonlama pishiq-puxta belgilab olish, Oliy Majlis va boshqa davlat hokimiyati tarmoqlari faoliyatini, butun jamiyatning kuch va imkoniyatlarini ana shu vazifalar ijrosi uchun to‘liq safarbar etish imkonini beradi. SHuning uchun ham mamlakatimiz va xorijdagi tanikli ekspert va siyosatshunoslar O‘zbekiston siyosiy hayotida bu institutning joriy etilishini demokratik tarakkiyot yo‘lidagi yangi bosqich, juda katta ahamiyatga molik vokea sifatida baholamokda.

Haqiqatan ham, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga 2018 yil uchun Murojaatnomasi - g‘oyat sermazmun va ko‘pqirrali siyosiy hujjat. Uning ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi axamiyati hakida albatta ko‘p va uzoq fikr yuritish mumkin. Lekin uning asosiy muhim jihat va tamoyillari sifatida kuyidagilarni ta’kidlash joiz.

Birinchidan, ushbu Murojaatnomada ilk bor mamlakatimizning bir yillik rivojlanish natijalariga nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki davlatchilik nuqtai nazaridan, yaqin istiqbolga mo‘ljallangan strategik maqsadlarimizdan kelib chiqqan holda baho berildi.

Ma’lumki, ilgari yakuniga etgan har bir yilga fakat ijtimoiy- iqtisodiy mezonlar asosida baho berilar, erishilgan natijalar ham shu asosda tahlil qilinlar,

kelgusi yil rejalari ham shunga binoan belgilanar edi. Bu tajriba ko'p jihatdan avvalgi davrlardagi xo'jalik masalalariga bag'ishlangan yig'ilishlarni eslatar edi.

Prezidentimiz 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomada esa bugungi O'zbekiston tarakkiyotining barcha jihatlari - davlat va jamiyat qurilishidan tortib, sud-huquq tizimidagi o'zgarishlargacha, iktisodiyotni modernizatsiya va liberalizatsiya kilishdan tortib, ijtimoiy sohani rivojlantirish, jamiyatda tinchlik va millatlararo hamjihatlikni mustahkamlash, chuqur o'ylangan tashqi siyosat yuritishgacha, bir so'z bilan aytganda, mamlakatimizning hozirgi rivojlanish boskichi uchun o'ta muhim va dolzarb bo'lib turgan barcha soha va yo'nalishlar qamrab olindi.

Murojaatnoma tarkibiy tuzilishiga ko'ra uch kismdan iborat:

1. Kirish qismida yangilanayotgan mamlakatimizda olib borilayotgan, xalq bilan muloqotga asoslangan, xar tomonlama chuqur o'ylangan siyosatning ma'nomazmuni va ahamiyati muxtasar bayon kilindi. Bunda xalq bilan muloqot siyosatini amalga oshirishda Prezidentning Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi kabi demokratik institutlar faoliyati yo'lga ko'yilgani, o'tgan davrda ularga bir yarim milliondan ziyod fuqaro murojaat qilgani hamda ko'tarilgan muammolarning asosiy qismi hal etilgani, eng muhimi, odamlarning dardu tashvishlariga bunday munosabat jamiyatning umumiy manzarasini, oddiy odamlarning ongu tafakkurini butunlay o'zgartirgani, islohotlar samarasini oshirishga xizmat qilayotgani alohida ta'kidlandi.

2. Murojaatnomaning birinchi kismida 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida amalga oshirish davlat dasturi doirasida olib borilgan ishlar, umuman, 2017 yil davomida turli sohalarda erishilgan natijalar atroflicha tahlil qilinib, zarur xulosalar chiqarildi.

3. Harakatlar strategiyasining asosiy ustuvor yo'nalishlari bo'yicha 2018 yil uchun mo'ljallangan taraqqiyot dasturining eng muhim tamoyillari, maqsad va vazifalari bayon kilindi.

Ikkinchidan, Murojaatnoma o'zining ma'no-mazmuniga ko'ra, O'zbekiston taraqqiyotining mutlaqo yangi bosqichiga ko'tarilayotganini yana bir bor yaqqol namoyon etdi. Chunki unda faqat joriy xususiyatga ega bo'lgan muammo va masalalar, bir yil uchun mo'ljallangan vazifalar emas, balki uzoq yillar mobaynida to'planib qolgan muammolar va ularning ildizi tanqidiy ruhda tahlil qilinib, ulardan qutulish, o'z umrini o'tab bo'lgan eskicha yondashuv va mezonlar o'rniga yangi va samarali, zamonning o'tkir talablariga javob beradigan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bo'yicha yaqin istiqbolga mo'ljallangan vazifalar xam aniq ko'rsatib berildi. Masalan, *«noreal raqamlar ortidan quvish, amalga oshmaydigan xomxayollarni haqiqat sifatida taqdim etishdek noma'qul ish uslubi» o'rniga «amaliy natijadorlik, inson manfaati va yana bir bor inson manfaati islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi»¹.*

Uchinchidan, Murojaatnoma asosida O'zbekistonda davlat boshqaruvida yangi samarali usul va mexanizmlar shakllanib, ishga tushmokda. YA'ni, Prezident davlat rahbari sifatida konun chiqaruvchi hokimiyat - Oliy Majlis, sud hokimiyati va ijro hokimiyati faoliyati natijalarini oxiriga etayotgan har bir yil bo'yicha yakunlab, tahlil qilib, yangi yil bo'yicha ularning oldiga dolzarb vazifalar qo'yib boradi. Bu esa davlat hokimiyatining turli tarmoqlari o'rtasida manfaatlar muvozanati va o'zaro tiyib turish hamda o'z faoliyatlarini mamlakatimizning umumiy strategik maksadlari yo'lida muvofiqlashtirib borish mexanizmlari samarali ishlashini ta'minlaydi. Har bir hokimiyat tarmog'i o'zicha mustakil bo'lib, xohlagan ishini kilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Albatta, Prezidentimizning Murojaatnomasida boshqa muhim jihatlar ham ko'p. Ana shu masalalardan biri O'zbekistonning innovatsion rivojlanish modeliga o'tishi masalalarining asoslab berilganligidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasining asosiy kismida mamlakatimizda 2018 yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarga e'tibor karatildi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. “Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил 23 декабрь.

Ma'lumki, uzoq yillardan beri mamlakatimizda navbatdagi yilning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reja va maqsadlarini belgilashda ayni vaktida xalqimiz va iqtisodiyotimiz oldida eng dolzarb ahamiyat kasb etib turgan muammo va masalalarni yaxlit holda hal etish imkonini beradigan asosiy, etakchi soha yoki yo'nalishni aniqlab olish hamda, shundan kelib chiqqan holda, yilga nom berish an'anasi mavjud.

Prezidentimiz o'z Murojaatnomasida mamlakatimizda shakllangan ijobiy an'anaga muvofiq kirib kelayotgan yangi - 2018 yilga qanday nom berish haqida kelishib olish zarurligi hakida to'xtalib o'tdi. E'tiborli tomoni, davlatimiz rahbari bu masala bo'yicha, yil davomida fuqarolarimizdan Prezidentning Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasiga, davlat idoralariga kelgan ko'plab murojaat va xatlar, joylarda bo'lib o'tgan uchrashuvlarda bildirilgan fikr-mulohazalar hisobga olingani, jamoatchilik fikri o'rganilganini alohida ta'kidlab o'tdi.

Prezidentimiz bildirilgan taklif va tavsiyalarning barchasini inobatga olib, yangi - 2018 yilga yurtimizda «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili», deb nom berishni taklif etdi.

Prezidentimizning yangi yilga «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili» deb nom berishi zamirida Vatanimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini, mavqeini ko'tarish, iqtisodiy taraqqiyotni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, fuqarolarimizning ma'naviyatini yanada yuksaltirish kabi yuksak maqsad va marralarga erishishda zamin yaratuvchi shart-sharoitlar, chora-tadbirlar, sa'y-harakatlar majmui namoyon bo'ladi¹.

Bu borada Prezidentimizning o'zi ham keng to'xtalib, xususan, faol tadbirkorlik degan tushunchaning mazmuniga alohida izoh berib o'tdi: «Faol tadbirkorlik biznes faoliyatini innovatsion, ya'ni zamonaviy yondashuvlar, ilg'or texnologiya va boshkaruv usullari asosida tashkil etadigan iqtisodiy yo'nalishdir»¹.

Ma'lumki, tadbirkorlik nazariyasiga ko'ra, uning quyidagi ikki modeli farqlanadi:

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасини ўрганиш ва кенг жамоатчилик ўртасида тарғиб этишга бағишланган илмий-оммабоп рисола.Т.: “Маънавият”, 2018. Б.-121.

- an'anaviy (klassik) tadbirkorlik;
- innovatsion tadbirkorlik.

An'anaviy (klassik) tadbirkorlik, bu - iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etish, uning rentabelligini oshirish va xizmat ko'rsatish turlarini kengaytirishda xo'jalik yuritishning an'anaviy usullaridan foydalangan holda, resurslardan maksimal darajada samara olishga yo'naltirilgan an'anaviy, konservativ tadbirkorlikdir. An'anaviy tadbirkorlik mamlakatda ayni paytga qadar ma'lum bo'lgan va keng tarkalgan, faoliyatni tashkil etish va yuritishda ijodkorlik, yangicha yondashuv va usullarni taqozo etmaydigan, iqtisodiy yuksalishning ko'proq kon'yunkturaviy o'zgarishlarga xos vaziyatlardan unumli foydalanish orqali ta'minlanishiga asoslangan faoliyat turlari bilan shug'ullanish orqali amalga oshiriladi. Masalan, mamlakatimizda mustaqillikka erishilganidan keyingi davrda iste'mol bozoridagi taqchilik ko'plab fuqarolarimizni savdo-tijorat tadbirkorligi bilan shug'ullanishi uchun qulay sharoit yaratdi. Bu borada maxsus bilim yoki boy tajribaga ega bo'lmaganlar uchun ham o'sha davrda etarli darajada daromad topish imkoni paydo bo'ldi. Birok, hozirgi vaktida ushbu sohada raqobat tobora kuchayib borayotgan sharoitda ham ko'plab tadbirkorlarimiz hamon faoliyat yuritishning soddaligi va mablag' aylanmasining tezligi kabi sabablar tufayli mazkur an'anaviy tadbirkorlik shakli bilan kifoyalaniq qolish holatlari mavjud.

Innovatsion tadbirkorlik, bu - yangilik yaratish maqsadida iqtisodiyotdagi hali ma'lum bo'lmagan yoki keng tarqalmagan omillardan foydalanish yoki ularni an'anaviy omillar bilan yangicha tarzda uyg'unlashtirish orqali yangicha yondashuv asosidagi tadbirkorlik faoliyatidir. Innovatsion tadbirkorlikning ustun jihati, bu - uning an'anaviy tadbirkorlikka nisbatan ko'proq natija olib kelishi hisoblanadi. Birok, ayni paytda ta'kidlash lozimki, innovatsion tadbirkorlik tadbirkorlarning oldiga o'ziga xos talablar qo'yadi, ularning doimiy ravishda ijod qilishi va izlanishi, yangi bilimlarni o'zlashtirishi va amaliyotga joriy etishi, yangi texnologiyalarni qidirishi va ulardan samarali foydalanishini taqozo etadi.

SHunga ko'ra, Prezidentimizning ta'biricha, faol tadbirkorlikning *asosiy sharti* innovatsion faoliyat turi bilan shug'ullanish hisoblanadi. Bu esa tadbirkorlik

faoliyatida zamonaviy yondashuvlar, ilg'or texnologiya va boshkaruv usullaridan foydalanishni ko'zda tutadi.

Bu borada mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati, xususan, korporativ tuzilmalarda zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanish tajribasini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmokda. Jumladan, Germaniyaning «Daymler», «Simens», «BMV», «Lyuftganza», «Tissen Krupp», «MAN», «Knauf» singari 25 etakchi kompaniyasi tashabbusi bilan 2002 yilda asos solingan Evropa menejment va texnologiyalar maktabida «Biznesni boshqarish», «Rahbar xodimlar uchun biznesni boshqarish» singari xalqaro standartlar asosidagi o'quv dasturlari tashkil qilingan. Ta'lim dargohining bir guruh mutaxassis va professor-o'qituvchilari tomonidan «O'zbekneftgaz», «O'zvinosanoatxolding» kompaniyalari, «O'zqurilishmateriallari», «O'zeltexsanoat», «O'zdonmahsulot», «Dori-darmon», «Kafolat sug'urta kompaniyasi», «O'zkimyosanoat», «O'zbekenergo» aksiyadorlik jamiyatlari singari yirik korxonalarining rahbar xodimlari korporativ boshqaruv usullari bo'yicha o'qitildi.¹

SHuningdek, Murojaatnomada faol tadbirkorlikning asosiy shartlari qatorida ***raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga*** qodir ishbilarmon insonlar faoliyati zarurligi ta'kidlab o'tildi.

Ma'lumki, mahsulotning rakobatbardoshligi ko'plab omillarni taqozo etadi. Ular tarkibiga arzon xomashyo va materiallar, tabiiy resurslardan tortib, to malakali ishchi kuchigacha, zamonaviy texnika va texnologiyalardan tortib, to izchil ravishda, muntazam yangilanib boradigan innovatsion ishlanmalarni joriy etib borishgacha bo'lgan omillar kiradi.

Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev o'zining ko'plab ma'ruza va chiqishlarida o'rinli ravishda tanqid qilganidek, mamlakatimizda milliy iqtisodiyot, shu jumladan, mahsulot rakobatbardoshligini oshirish masalalariga etarlicha e'tibor qaratilmadi. Bu borada mavjud imkoniyatlar va salohiyatdan foydalanilmadi. Aksincha, ayrim holatlarda tadbirkorlar uchun asossiz ravishda engillik va

¹ Korparativ boshqaruv – samaradorlikning muhim omili. [http:// www.uz.gov](http://www.uz.gov)

imtiyozlarning berilishi pirovardida ularning mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga bo'lgan intilishlarini so'ndirib, bu boradagi chora-tadbirlarni rag'batlantirmay qo'ydi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, respublikadagi qator xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy jihatdan nochor ahvolga tushib kolganliklari, ya'ni ularning mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh emasligi mazkur korxonalarda ishlab chiqarish jarayonida nihoyatda ortiqcha resurslar sarf qilinishi bilan izohlanadi. Xususan, mamlakatning mineral o'g'itlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarida o'z vaqtida o'tkazilgan tahlillar ularda energiyaga va asosiy xomashyoga sarflar ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxining 64 foizdan ko'prog'ini tashkil qilishini ko'rsatgan edi. Holbuki, rivojlangan davlatlar kimyo sanoatidagi ana shunday turdosh firmalarda bu chiqimlar 2-2,5 barobar kamdir.

Bu kabi korxonalarining boshqaruvida eskicha fikrlashga, o'z umrini o'tab bo'lgan reja-taqsimot tizimi qoldiqlariga, davlatning soliq imtiyozlari va proteksionistik choralari hisobiga yashashdan iborat boqimandachilik kayfiyatiga tushib qolgani oshkor bo'ldi. «O'z kimyosanoat» tarmog'i korxonalari ham ana shunday davlat imtiyozlari va preferensiyalaridan foydalanib kelgan. Ular, masalan, ishlab chiqarish mahsulotlari tannarxining salkam yarmini tashkil etadigan asosiy xomashyo - tabiiy gazdan uning eksport narxidan qariyb uch barobar arzon narxda foydalanib kelgan»¹.

Endilikda biz faol tadbirkorlikni ilgari surar ekanmiz, mamlakatimizdagi har bir tadbirkor - u yirik korporatsiya yoki xususiy firma rahbari bo'ladimi, kichik biznes egasi yoki yakka tadbirkor bo'ladimi, bundan qat'i nazar, har birining o'z mahsulotini, avvalo, ichki bozorda, qolaversa, jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashga amaliy harakat qilishini o'ziga xos xislat ko'rinishida shakllantirishimiz lozim.

Eng muhimi, faol tadbirkor deganda, yangi ish o'rinlari yaratib, nafaqat o'zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon

¹ Абдурахмонова Г.Рақобатбардошлик – бозор талаби.[http:// www.biznes-daily/uz](http://www.biznes-daily/uz)

insonlar tushuniladi. Mamlakatimizda mustaqil taraqqiyot davrida asta-sekin mana shunday faol tadbirkorlar kqtlami vujudga kelmoqda. Ular o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali o‘z atrofidagi ish o‘rinlariga muhtoj bo‘lganlar uchun yangidan-yangi imkoniyatlar yaratmoqdalar.

SHu o‘rinda birgina misol. Namangan shahrida Adham Jo‘raboev rahbarligidagi tikuvchilik mahsulotlari ishlab chikarishga ixtisoslashtirilgan «AYMA GROUP TEXTILE» mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 1,6 gektar er maydonida 2017 yilning o‘zidayoq xayrli ishga qo‘l urilib, qurilish ishlari boshlanib, 3 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ hisobidan Xitoy, Germaniya va Turkiya davlatlaridan 200 dan ortiq tikuv mashinalari va jihozlari olib kelinib, 300 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi¹.

Haqiqatan ham, yurtimizdagi mavjud iqtisodiy salohiyatni ishga tushirgan holda bu kabi faol tadbirkorlarimiz safi kengaytiriladigan bo‘lsa, yaqin kelajakda mamlakatimizda ishsizlar soni keskin qiskarib, aholining o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun etarli daromad topish imkoni paydo bo‘ladi.

Prezidentimiz «faol tadbirkorlar safini kengaytirish, jumladan, yuqori texnologiyalar, ilm-fanning eng so‘nggi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarni mamlakatimizga olib kelish va joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdagi vazifamiz bo‘lishi shart. Kerak bo‘lsa, xorijdagi etakchi kompaniya va tashkilotlarda tajriba orttirishi, o‘zaro manfaatli hamkorlik qilishi uchun ularga har tomonlama imkoniyat tug‘dirib berishimiz lozim»², deb ta’kidlab o‘tdi.

Ma’lumki, innovatsion faoliyatga yondashgan holda, jamiyatimizni yanada barqarorlashtirish va bu orqali mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o‘rnini yanada mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. SHu boisdan yurtimizda ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish hamda mamlakatni demokratik yangilashda fanning rolini kuchaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotir. Ayni paytda davlatimiz

¹ «AYMA GROUP TEXTILE» -300 дан ортик янги иш ўринлари.<http://www.namangancity.uz>

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <http://uza.uz/> 22-12-2017.

qudratini oshirishga, xalqimiz farovonligini yaxshilashga xizmat qiluvchi innovatsion texnologiya va ishlanmalarining hayotga samarali tatbiq etilishini yanada rivojlantirishni davrning o'zi takozo etmokda.

Mazkur yo'nalishdagi islohotlarning tadrijiyligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2017 yil 29 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi PF-5264-son Farmoni qabul kilindi. Bu esa amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladigan muhim o'zgarishlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Ushbu hujjatga ko'ra, bir qator yo'nalishlar mamlakatimizni innovatsion rivojlantirishning quyidagi asosiy omillari etib belgilandi.

6. Mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirishning uzok muddatli ssenariylari asosida ustuvor soha va tarmoqlarni innovatsion rivojlantirishning kelajkdagi modellarini shakllantirish imkonini beradigan strategik rejalashtirish tizimini yaratish;

7. Davlat xizmatlari ko'rsatishning tartib-taomillarini optimallashtirish va soddalashtirishni, davlat boshqaruvi organlari faoliyatining samaradorligini oshirishni ta'minlaydigan davlat boshqaruvining innovatsion shakllarini joriy etish;

8. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining barqaror o'sishi, shuningdek, aholining hayot darajasi va farovonligi yuksalishi uchun zarur sharoitlarni ta'minlashga qodir bo'lgan fan va innovatsiya faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish;

9. Innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish sohasiga investitsiyalarni keng jalb etish, ularning yanada rivojlanishini ta'minlovchi normativ-hukukiy bazani takomillashtirish;

10. Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ishlanmalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish, shuningdek, ushbu faoliyatda iqtidorli yoshlar faol ishtirok etishi uchun qulay sharoitlar yaratish;

11. Mamlakatimiz ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatining istiqbolli yutuqlarini targ'ib qilish va joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, shu jumladan, ilmiy-eksperimental ixtisoslashtirilgan laboratoriyalar, yuqori texnologiyalar markazlari, texnoparklar va boshqa innovatsiyaga yo'naltirilgan tuzilmalarni, xususan, chet el investorlari ishtirokida tashkil etish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

12. Tabiatni muhofaza qilish, resurs va energiya tejaydigan texnologiyalarni, jumladan, muqobil energiya manbalarini, suvni tozalash va chuchuklashtirish, undan oqilona foydalanishning zamonaviy shakllarini keng ko'llash orkali faol joriy etish;

13. Sog'likni saqlash sohasida kasalliklarni barvaqt aniqlash va profilaktika qilish, o'z vaqtida va samarali davolashga imkon beruvchi ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish va sog'lom avlodni tarbiyalashga qaratilgan kompleks tizimni yaratish;

14. Agrar sohaga innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni, shu jumladan, ishlab chikarish samaradorligini va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga ko'maklashuvchi qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini targ'ib qilish;

15. Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini har tomonlama rivojlantirishni ta'minlovchi zamonaviy axborot-kommunikatsiya, sanoat va boshqa innovatsion texnologiyalarni jadal joriy etish;

16. Innovatsiya faoliyati sohasida ilg'or xorijiy (xalqaro) tashkilotlar bilan, shu jumladan, ularni nou-xau, nanotexnologiyalar va yuqori texnologik tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishning mahalliy bozoriga jalb qilish orqali hamkorlikni kengaytirish.

Xalqaro innovatsiya indeksining¹ 2017 yilda e'lon qilingan xisobotida mamlakatlarning qishloq xo'jaligida olib borayotgan innovatsion faoliyati hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar alohida e'tibor bilan

¹ The Global Innovation Index 2017: Innovation Feeding the World.

o'rganib chiqilgan. Unga ko'ra, xalkaro miqyosda innovatsiyalarning rivojlanishida oltita ho-latning o'ziga xos ahamiyati ajratib ko'rsatiladi va ular quyidagilardan iborat:

1. Jaxon iqtisodiyoti tub burilishlar ostonasida turgan bir vaziyatda innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun yaratilgan va yaratiladigan shart-sharoitlar.

2. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda oziq-ovkat xavfsizligi bilan bog'lik muammolarni barataraf etishda «akqli (smart) va raqamli (dijtl)» qishloq xo'jaligiga asoslangan innovatsiyalarni yaratish va joriy etish.

3. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlar innovatsion jarayonlarni takomillashtirayotgan bir paytda xalqaro miqyosda innovatsiyalarning konvergentsiyasi talab etilmoqda.

4. SHarqiy Osiyo innovatsion yo'lbarlari uchun faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari vujudga kelgan bir paytda Hindistonda hududiy innovatsion tarmoqlarning yanada chuqurlashuvi kuzatilmokda.

5. Janubiy Afrika mamlakatlarida innovatsion impuls saqlanib qolayotgan davrda Lotin Amerikasi davlatlarida innovatsion potentsiyadan foydalanish ustuvorlik kasb etmokda.

6. Tokio-Iokogamu, SHenchjen-Gonkong (Xitoy), San-Xose-San-Fransisko va Kaliforniya kabi hududlarda innovatsion faoliyatning yirik submilliy klaster tizimi vujudga kelmoqda.

Qayd etish lozim, innovatsion faoliyatni rivojlantirishda mamlakatlarning guruhlarga ajratilgan holda shakllanishi yuzaga kelmokda. Ushbu mamlakatlarning tendensiyalariga e'tibor qaratisa, qishloq xo'jaligi sohasida innovatsiyalarni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari shakllanmokda. Xususan, qishloq xo'jaligida tadqiqotlarning amalga oshirilishi, tadqiqotlar sifati va ko'lami, xalqaro kompaniyalarning hamkorlik darajasi kabi ko'rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

SHu boisdan yukorida qayd etib o‘tilgan hujjatda ham yangi tashkil etilgan vazirlikka agrar sohada ham innovatsiyalarning rivojlantirishga e‘tibor qaratish vazifasi alohida belgilab berilgani bejiz emas.

SHuningdek, xalqaro innovatsiya indeksida mamlakatlarda oziq-ovqat xavfsizligi borasida amalga oshirilayotgan innovatsiyalar va ulardan olinayotgan natijalar asosida tuzilgan reyting mavjud. Unda global maydonda yuz berayotgan jarayonlar mamlakatlar va turli ko‘rsatkichlar tizimida berib o‘tilgan. SHunday bo‘lsada, O‘zbekiston ushbu reytingda 127 mamlakat ichida innovatsiyalarni keng joriy etayotgan davlatlar ro‘yxatida qayd etilmagan.

SHu bilan birga, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim olayotgan talabalarning jamiga nisbatan eng yuqori 5 ta davlatdan ikkinchi bo‘lib kayd etilgan. Bu esa, agrar sohada istiqbolli loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini belgilovchi omillardan biridir. Mazkur hisobotga ko‘ra, O‘zbekistondagi jami talabalarning 7,5 foizi aynan qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida ta‘lim olmoqda.

Bu esa, o‘z navbatida, nafaqat yangi tashkil etilgan vazirlik, balki tadqiqotlar oldiga ham yuksak vazifalarni qo‘yadi, Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti innovatsiyalar va ularni hayotga tatbiq etish to‘g‘risida quyidagi o‘rinli fikrlarni bildirib o‘tdi: innovatsiya: bu - kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak. SHuning uchun biz Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etdik va uning oldiga aniq vazifalarni qo‘ydik. Bu vazirlik nafaqat iqtisodiyot sohasida, balki butun jamiyat hayotida eng muhim loyihalarni amalga oshirishda o‘ziga xos lokomotiv rolini bajaradi.¹

Bu borada, Evropa Ittifoqining bilimlarga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish va shu asosda iqtisodiy barkarorlikka erishish alohida e‘tibor bilan amalga oshiriladi (7.1-jadvalga karang).

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. /“Халқ сўзи”, 2017 йил 23 декабрь.

Bundan tashqari, Evropa Ittifoqi va AQSHda intellektual kapitalga investitsiyalarning kiritilishi mehnatdagi ishlab chiqarishning 20 foizdan 34 foizgacha o'sishini tashkil etishini qayd etib o'tadi. SHu bilan birga, AQSH, YAponiya, Xitoy va Evropa Ittifoqi mamlakatlarida ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirilayotgan davlat mablag'larining YAIMga nisbatan hajmi borasidagi xulosalar shakllantirilgan. Mazkur ko'rsatkich AQSHda o'rtacha 2.5 foizni, EIda 1,8 foizni va Osiyoning etakchi iqtisodiyotlarida 1,9 foizni tashkil etayotganini qayd etadi. O'zbekistonda mazkur tendensiyaning rivojlanishidagi raqam 0.3 foiz ekani, bu esa hali foydalanishi lozim bo'lgan imkoniyatlar mavjudligini anglatadi.¹

7.1 - j a d v a l

Evropa Ittifoqi Komissiyasining innovatsion faoliyat ko'rsatkichlari²

Guruhlar	Ko'rsatkichlar
<i>Inson resurslari</i>	<ul style="list-style-type: none"> -20-29 yoshdagi har 1 000 ta aholida fan va texnika sohasidagi bitiruvchilar; -25-34 yoshdagi har 1 000 ta aholida fan va texnika sohasidagi ilmiy darajaga ega bo'lganlar; -25-64 yoshdagi har 100 ta aholiga ta'limda ishlovchilar; - yoshlarning savodxonlik darajasi.
<i>Davlat rag'batlantirishi va moliyalashtirish</i>	<ul style="list-style-type: none"> -davlatning ITlarga xarajati (YAIMda foiz); -xususiy sektor mablag'i (YAIMda foiz); -xususiy kreditlar (YAIMda foiz).

IHRT (OESD) mamlakatlari miqyosida boshlang'ich ta'limdan oliy ta'limgacha har bir ta'lim oluvchiga nisbatan davlat ta'lim muassasalaridagi harajat 9 552 AQSH dollarini, xususiy ta'lim muassasalarda esa 5 992 AQSH dollarini tashkil etib, davlat muassasalarida yuqori darajani

¹ Ирматова А.Б. Хорижий давлатларда интеллектуал капитални ривожлантириш тажрибалари ва улардан фойдаланиш имкониятлари// Иктисодиёт ва инновацион технологиялар илмий электрон журнали. - Тошкент: 2015.№ 6.

² European Innovation Scoreboard (EIS) 2009. European Union,2010.-76 p.

ko'rsatmoqda. SHu bilan birga, oliy ta'lim tizimida bir talaba boshiga to'g'ri keluvchi o'rtacha xarajatlar xususiy OTMdagi xuddi shu ko'rsatkichdan uch barobar ko'p bo'lib, mos ravishda 12 222 va 4 136 AQSH dollarini tashkil etadi.³

Ta'kidlash lozim, mamlakatimizda bir talabaga to'g'ri keluvchi harajatlar miqdori IHRT mamlakatlaridagi ko'rsatkichlardan sezilarli darajada kam bo'lmoqda. SHu boisdan mazkur ko'rsatkichning nafaqat oshirilishiga, balki bu orqali oliy ta'limning qamrovini kengaytirishga bo'lgan zaruriyat yuzaga kelib chiqadi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda inson kapitalini shakllantirishda ko'proq aholini qamrab olish imkoniyatini yaratib beradi.

Davlat harajatlarining ta'lim tizimidagi ulushi yuqori bo'layotgan bo'lsa-da, talabaga nisbatan sarflanayotgan mablag'lar ulushi IHRT mamlakatlari bilan solishtirganda, birmuncha kam ekanini, xususan, ushbu ko'rsatkich O'zbekistonda 4-4,5 barobar pastligini ko'rsatadi. Germaniya va Fransiyada 10 000 dollardan oshiq bo'lsa, Niderlandiyada

12 505 va Buyuk Britaniyada 18 593 dollarni tashkil etmoqda.¹ Zotan, byudjet harajatlari ulushi past bo'lsa-da, talabalarning o'zlari (yoki qarz hisobidan va yaqinlari) tomonidan amalga oshirilayotgan ta'lim harajatlari hisobidan EI mamlakatlarida ushbu ko'rsatkichlar mavjud.

Ana shu tendensiyalarni inobatga olgan holda, bir qator amaliy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 maydagi «2017/2018 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish to'g'risida»gi Qaroriga ko'ra, qabul hajmi bakalavrlar uchun 57 907 tadan 66 316 taga oshib, bu o'sish 15 foizni tashkil qildi. Albatta, talabalarni qabul qilish sezilarli darajada o'sishiga erishildi. 2017-2018 o'quv yilidan boshlab OTM oshirilgan ta'lim to'lovi bo'yicha qo'shimcha tarzida talabalar qabul qilinmoqda. Bu ham yaxshi tajriba.

³ Education at a Glance 2016, pp 214.

¹ Education at a Glance 2015, OECD.

Bundan tashqari, mamlakatimizda Fanlar akademiyasi faoliyatini rivojlantirishga ham alohida e'tibor berilmokda. SHu tariqa ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiyalarning yanada rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademiklari faoliyatini yanada takomillashtirish va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4907-sonli Farmoniga muvofiq mamlakatimiz ilm-fani nufuzini yanada oshirish, ilmiy-texnologik salohiyatini yuksaltirishda akademik ilm-fanning rolini kuchaytirish, Fanlar akademiyasi a'zolari tarkibini fanning ustuvor yo'nalishlarida olib borayotgan faol ilmiy-tadqiqot izlanishlari natijalari bilan respublika va xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan taniqli olimlar hisobidan kengaytirish, mavjud ilmiy maktablar an'alarini davom ettirish va yangi maktablar yaratilishini ta'minlash maqsadida bir kator akademiklar Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolariga saylandi. Ushbu ro'yxat esa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolarini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5293-sonli Farmoni bilan tasdiqlandi.

Umuman olganda, O'zbekistonda dunyo mamlakatlari singari 2020 yilgacha ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-texnik ishlarni moliyalashtirishda davlat va xususiy sektorlar ulushi nisbatini ba'zi tebranishlar bilan mos ravishda 40:60 proporsiyaga etkazish maqsadga muvofiq. Bunda amaliy tadqiqotlarga va tajribaviy-konstruktorlik ishlanmalarga, ustuvor ilmiy-texnik yo'nalishlarga, fundamental tadqiqotlarga nisbatan bir necha barobar ko'p moliyaviy resurslar ajratilishi lozim. 2017 yil 22 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan milliy davlatchiligimiz tarixida birinchi marta mamlakatimiz parlamenti - Oliy Majlisga Murojaatnoma taqdim etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga 2018 yil uchun Murojaatnomasining asosiy muhim jihat va tamoyillari sifatida quyidagilarni ta'kidlash joiz.

Birinchidan, ushbu Murojaatnomada ilk bor mamlakatimizning bir yillik rivojlanish natijalariga nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki davlatchilik nuqtai nazaridan, yaqin istiqbolga mo'ljallangan strategik maqsadlarimizdan kelib chiqqan holda baho berildi.

Ikkinchidan, Murojaatnoma o'zining ma'no-mazmuniga ko'ra, O'zbekiston taraqqiyotining mutlaqo yangi bosqichiga ko'tarilayotganini yana bir bor yaqqol namoyon etdi. Chunki unda faqat joriy xususiyatga ega bo'lgan muammo va masalalar, bir yil uchun mo'ljallangan vazifalar emas, balki uzoq yillar mobaynida to'planib qolgan muammolar va ularning ildizi tanqidiy ruhda tahlil qilinib, ulardan qutulish, o'z umrini o'tab bo'lgan eskicha yondashuv va mezonlar o'rniga yangi va samarali, zamonning o'tkir talablariga javob beradigan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bo'yicha yaqin istiqbolga mo'ljallangan vazifalar xam aniq ko'rsatib berildi.

Uchinchidan, Murojaatnoma asosida O'zbekistonda davlat boshqaruvida yangi samarali usul va mexanizmlar shakllanib, ishga tushmokda. YA'ni, Prezident davlat rahbari sifatida konun chiqaruvchi hokimiyat - Oliy Majlis, sud hokimiyati va ijro hokimiyati faoliyati natijalarini oxiriga etayotgan har bir yil bo'yicha yakunlab, tahlil qilib, yangi yil bo'yicha ularning oldiga dolzarb vazifalar qo'yib boradi. Bu esa davlat hokimiyatining turli tarmoqlari o'rtasida manfaatlar muvozanati va o'zaro tiyib turish hamda o'z faoliyatlarini mamlakatimizning umumiy strategik maksadlari yo'lida muvofiqlashtirib borish mexanizmlari samarali ishlashini ta'minlaydi. Har bir hokimiyat tarmog'i o'zicha mustakil bo'lib, xohlagan ishini kilishiga yo'l qo'yilmaydi.

2.3.Ijtimoiy fanlar o'qitilishida SH.Mirziyoev asarlaridan foydalanish metodikasi

YUqoridagi boblarda ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev asarlarida O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyotining ilmiy-metodologiyasi asoslab berilgan. SHu nuqtai nazardan rezidentimizning asrlari barcha ijtimoiy fanlarning

metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy fanlarni o'qitilishida har bir pedagog avvalo yurtboshimizning asrlarida ifodalangan davlat va jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi g'oya va qarashlar, tamoyil va konseptual fikrlarning mazmun-mohiyatini teran tushunishi va shu asosida o'zi o'qitadigan predmet bo'yicha o'quv jarayoniga ijodiy qo'llay olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi zarur. Ijtimoiy fanlar jamiyat taraqqiyotining ob'ektiv qonuniyatlarini ochib berishda, o'quvchi-talabalarga Prezidentimiz asarlaridan foydalanish metodikasi bilan qurollanishi maqsadga muvofiqdir. Biz shu o'rinda ijtimoiy fanlarni o'qitishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev asarlaridan foydalanish bo'yicha quyidagi innovatsion pedagogik texnologiya va interfaol ta'lim usullarini tavsiya qilamiz.

XULOSA

Mustaqillikning o'tgan davrida mamlakatimizda hukukiy demokratik davlat, erkin fukarolik jamiyati asoslari barpo etildi. Iqtisodiyotning butunlay yangi shakli - ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga o'tildi. Mulkchilik, mulkka egalik tuyg'usini shakllantirish orqali jamiyatda insonning bunyodkorlik, yaratuvchilik qobiliyatini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Ijtimoiy sohada butunlay yangi - inson hayoti, turmush farovonligi, tinchligi va barqarorligiga yo'naltirilgan yaxlit, demokratik tizim vujudga keldi. Qonun ustuvorligi, qonun oldida barchaning tengligini ta'minlash asnosida haqiqiy erkin demokratik rejim shakllantirildi. Darhaqiqat, qonun ustuvor bo'lgan joydagina va qonun doirasidagi erkin faoliyatgina kishilik jamiyatining butun mohiyatini belgilaydi va uni yuksak qadriyatga aylantiradi. Chunki haqiqiy demokratiya - bu konun hukmronligidir. Endi ana shu qo'lga kiritilgan yutuqlarni yanada mustahkamlash, ularni zamonaviy sivilizatsiya talablari, XXI asrda inson va insoniyat taqdiri bilan bog'lik bo'lgan global muammolardan kelib chiqib rivojlantirishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Bu - bevosita jamiyatning barcha sohasi va yo'nalishlarini kamrab olgan yalpi yangilanishlarni talab qilayotgan hayotiy ehtiyojdir. Prezident SH.M.Mirziyoev tomonidan ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha X,arakatlar strategiyasi bugungi kunda mamlakatimiz oldida turgan buyuk maqsadlarga yetish, ulkan vazifalarni hal etishda dasturulamal vazifasini bajarmoqda.

Xalqimizning o'ziga xos jihati shundaki, u adolatga, murosaga, ochiqko'ngillik va samimiy munosabatga moyil xalqdir. U faol va ongli boshqarish orqali yangidan-yangi imkoniyatlarni namoyon qila oladigan, o'zining yuksak ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy- ruhiy va intellektual salohiyatini ko'rsata oladigan bunyodkor xalq. Ayni ana shu kayfiyat, xalq fe'l-atvori, milliy ruhiyat ochik jamiyat qurilayotganini, xalq bilan davlat o'rtasidagi munosabatning soglom va o'zaro ishonchli, aniq maqsad va umummilliy manfaat asosida qurilayotganini katta mamnuniyat bilan qabul qilmoqda. Ana shunday ijobiy hayotbaxsh

ma'naviy-ruhiy vaziyat tobora chuqurlashib borayotgani sayin jamiyatda ulkan taraqqiyotga, sifat jixatdan yangilanishlarga va O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga qaratilgan amaliy xarakatlarimiz ham kuchayib bormoqda.

Harakatlar strategiyasida belgilangan va ushbu BMIda taxlil etilgan beshta yo'nalish ayni ana shu umummilliy kayfiyat va yalpi safarbarlikka asos bo'lib xizmat qilmoqda. Buni quyidagilarda ko'rish mumkin:

birinchidan, davlat va jamiyat qurilishi borasidagi yutuqlarni mustahkamlash, bir necha ming yillik o'zbek davlatchiligi an'analari bilan xozirgi zamon jahon davlatchiligi ilg'or tajribalarining sintezlashgan shaklidagi taraqqiyot modelini chukurlashtirish;

ikkinchidan, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-xuquq tizimini islox qilish bilan bog'lik bo'lgan yangilanishlarni yangi bosqichga ko'tarish. Bunda mavjud qonunlarni qayta ko'rib chikish, ularni xozirgi zamonning shiddat bilan o'zgarayotgan jarayonlariga, ijtimoiy-siyosiy yangilanishlar extiyojiga muvofiqlashtirish. CHunki O'zbekiston globallashuv jarayonlariga faol kirib borayotgan ekan, umumsayyoraviy masalalarni hal qilishda katta kuch-g'ayrat va salohiyatini namoyon qilayotgan bir paytda o'zining buyuk kelajagini jahon sivilizatsiyasining uzviy bir bo'lagi sifatida ko'rayotgan ekan, ana shu jarayonlarni jamiyat bilan bog'lik xolda faollashtiradigan qonunlar tizimi zarur. Ulug' bobokalonimiz Abu Nasr Forobiy bundan ming yillar burun «**Yaxshi qonunlar, yaxshi an'analardan kelib chiqadi**» deb aytgan edi;

uchinchidan, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirish va uni liberallashtirish bilan boglik bo'lgan bugungi kundagi muammolarning yechimini topish va uzoq muddatli taraqqiyotga asos solish. Bunda iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, mulk va mulk egasi xuquqini himoya kilish. mulkchilik mavqeini har tomonlama kuchaytirish. kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish orqali aholi asosiy ko'pchiligini tashkil etadigan o'rta qatlamning jamiyatdagi rolini yanada oshirish asosiy vazifa qilib qo'yilmoqda. Iqtisodiyotni rivojlantirishning tub mohiyatidan kelib chiqib, makroiqtisodiy barqarorlikni butun choralar bilan mustahkamlash, tarkibiy

o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini uzluksiz modernizatsiya qilish choralari ko'rish talab etilmoqda.

to'rtinchidan, ijtimoiy sohani rivojlantirish. Inson ozod va erkin Vatan- da to'lakonli yashash, hayotning barcha ne'matlaridan foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lmog'i lozim. Ana shu umuminsoniy kadriyat va orzu-intilish Harakatlar strategiya- sining asosiy maksadi kilib ko'yilgani Uzbekistonda insonparvar davlat siyosatining chuqurlashib borayotganidan dalolat beradi;

beshinchidan, har kanday xalk, har kanday jamiyat tinch-totuv yashashdan, barka- rorlikdan manfaatdor. Bu azaliy koida XXI asrda, ayniksa, dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahonda diniy ekstremizm va akidaggarastlikning avj olayotgani, millatlararo totuvlikka rahna solishga harakat kilayotgan kuchlarning mavjudligi Uzbekistonda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik xalk fenomeniga, uning ma'naviy tim- soliga, ruxiy kiyofasiga aylangani eng katta yutug'imizdir. Endi bu bebaho boylikni asrash, rivojlantirish uchun har bir fukaro kalbida mafkuraviy immunitetni, ma'na- viy-ma'rifiy salohiyatni oshirish orkali tinch-osuda hayotni, Vatanimiz mustakilligi, xalkimiz, farzandlarimiz kelajagini ko'z korachigidek asrash yo'lidagi mas'uliyatni kuchaytirishni takozo etmokda.

Uzbekistonning tashki siyosati o'zaro manfaatli, chukur o'ylangan, har kanday dav- lat suverenitetini xurmat kilgan holda, teng xukukli sog'lom munosabatlarni chu- qurlashtirishdan iborat. Harakatlar strategiyasi ana shu qadriyatlarni yangi tarixiy sharoitda taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarishga da'vat etadi.

SHu ma'noda. O'zbekistonda yangilanishlar strategiyasining zamon talablariga mos va uzoqni ko'zlagan, aniq maqsadlarga tayangan taraqqiyot davri boshlandi, deb aytishga har tomonlama haqlimiz. Bitiruv malakaviy ishi mavzusini tadqiq etish natijasida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Prezidentimiz SH.Mirziyovning keng ko'lamli taraqqiyot strategiyasi va innovatsion rivojlanishga oid g'oya va olib borayotgan siyosatining mazmun- mohiyatini nafaqat o'quv mashg'ulotlarida balki turli ilmiy-nazariy va amaliy anjumanlarda mamlakatni modernizatsiyalash va jamiyatda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalish va vazifalarni ilmiy-nazariy tahlil etish;

- Ta'lim muassasalarida SHavkat Mirziyoev asarlarida asoslab berilgan davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini innovatsion rivojlantirish konsepsiyasi va shu asosda O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichidagi asosiy muammolarni ilmiy jihatdan o'rganish va ularning yechimiga oid "g'oyalar" bankini yaratish;

-Talabalar o'rtasida iqtisodiy, ijtimoiy, texnik va ta'lim innovatsiyalarining yarmarkalarini tashkil etish;

-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev asarlari bilimdoni tanlovlarini tashkil etish;

- innovatsiya tushunchasini, uning turlari, amaliyotga tadbiq etish mexanizmlarini, Prezidentimiz asarlarida ifodalab berilgan O'zbekistonning milliy innovatsion tizimini ilmiy-falsafiy jihatdan tizimli tadqiq etib borish;

-Ommaviy axborot vositalarida respublikamizning turli burchaklarida yashab ijod qilayotgan yoshlarning innovatsion g'oya va texnologiyalarini yoritib borish;

- SHavkat Mirziyoev asarlarida asoslab berilgan davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini innovatsion rivojlantirish konsepsiyasining mazmun-mohiyati, O'zbekistonning innovatsion rivojlantirish muammolariga bag'ishlangan ilmiy maqolalar tanlovlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.- T., O‘zbekiston, 2017.
2. SHavkat Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.T.: “O‘zbekiston”, 2017.
3. SHavkat Mirziyoev. «Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017.
4. SHavkat Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017.
5. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak T.: “O‘zbekiston”, 2017.
6. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganishga bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola.T.: “Ma’naviyat”, 2017.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 farmonida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks o‘rganish natijalari bo‘yicha yig‘ma tahliliy material.T.:Sano-standart” 2017.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o‘rganish va keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib etishga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop qo‘llanma. T.: “O‘zbekiston”, 2018.
9. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.
13. Mavrulov A. Ma’naviy barkamol inson tarbiyasi. T. , “O‘zbekiston”, 2005.
14. Qodirov A. Q. An’ anaviy jamiyat va uni modernizatsiyalashtirish strategiyasi. T. : Tosh. Dav. yur. ins., 2005.

15. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
16. Karpova YU.A. Innovatsii, intellekt, obrazovanie. – M.: Nauka, 1998.
17. Radugin A.A., Radugin K.A. Vvedenie v menedjment: sotsiologiya organizatsiy i upravleniya. – Voronej, 1995.
18. Rejabek E.YA. CHto takoe postindustrializm // Innovatsionnye podxody v nauke. – Rostov-na-Donu, Feniks, 1995.
19. Hakim Termiziy. Ma'rifat ul-asror. T.: "Movarounnahr", 2017.